

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KISHLOQ VA SUV
XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**BARAYEV F.A., SERIKBAYEV B.S., BAZARGOV R.X,
FULOMOV S.B., O'RINBAYEV S.N., ,
ShAYMANOV N.O., MAMASOLIYEV A.B.**

**SUV RESURSLARI VA
SUVDAN TEJAMLI FOYDALANISH**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lif vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmasi faoliyatini Muvoqiqlashtiruvchi kengash tomonidan
o'quv ko'llanma sifatida tavciya etilgan

**O'κun қo'llanma O'zbekiston Respublikasi OO'MTVning 2014 yil
____, ____dagi № ____-buyrugiga asosan chop etishga tavsiya etilgan.**

UDK 631.6

**Mualliflar: Barayev F.A., Serikbayev B.S., Bazarov R.X., Fulomov S.B., O'rribayev S.N.,
Shaymanov N.O., Mamasoliyev A.B.**

Suv resurslari va suvdan tejamlı foydalanish. O'κun қo'llanma., Toshkent-2014.

Takrizchilar: **Yakubov M.O., Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadkikot instituti,** t.f.d., professor.

Suvonov B., Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti «Kishloq xo'jaligi gidrotexnik melioratsiyasi» kafedrasi dotsenti, t.f.n.

O'κun қo'llanma 5A650202– Melioratsiya va suforma dexkonchilik magistratura mutaxassisligida o'κiydigan talabalarning bilimiga, yo'nalishdagi ko'nikmalariga қo'yiladigan talablar, fanni o'rganish va o'zlashtirish uchun zarur bo'lган maxsus ma'lumotlar va kerakli adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Kitob negizida BMT dasturi aosida chop etilgan monografiya қo'llanilgan (BMTTD, 2007, O'zbekiston, 100029, Toshkent sh., T. Shevchenko ko'ch., 4 Tel: (998 71) 120 34 50; faks: (998 71) 120 34 85 E-mail: registry@undp.org Veb-sayt: www.undp.uz).

Ushbu o'κun қo'llanmada suv - oziq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqarish, soqliki saqlash, munosib xayot kechirish va insoniyat taraqqiyotining assosiy manbaidir. Jaxonda toza ichimlik suvi zaxirala-rining tugash xavfi tobora oshmoqda. Suv tankisligi bilan boflik muammo olamshumul taxdidiga aylanib, tabiiy muxitning yomonlashuviga, yashashga doir imkoniyatlarning cheklanishiyu axoli salomatligining yomonlashuviga olib keldi. Bugun sayyoramizning kirkdan ortiq mamlakatida istikomat kiliuvchi 2 milliarddan kuproq odam suv tankisligidan aziyat chekmoqda.

Suv resurslari tankisligi Uzbekistonning izchil rivojlanishiga o'z ta'sirini utkazishi mumkin bo'lган asosiy omillardandir. Mamlakat ayni kunlarda suv yetish-masligi, suv manbaalarining қurishi va ifloslanishi bilan boflik ayrim muammolarga duch kelmoqda. Shu bois ushbu sharx keng jamoatchilikni, ilmiy va davlat tuzilmalarini bu borada yuz berishi mumkin bo'lган muammo va mintaqaviy taxidlardan ogox etish maksadida o'z vaqtida tayyorlangan xujjatdir. Shuningdek, u Markaziy Osiyodagi besh davlatning suv resurslarini xamkorliqda boshkarish va Orolbo'yining buzilgan tabiiy ekotizimini tiklashga қaratilgan sa'y-xarakatlari xakidadir.

Kitob қishloq va suv xo'jaligi oliygoxlari va o'rta maxsus bilim yurtlari, xamda ishlab chiqarish tashkilotlari va ilmiy tadkikot institutlari uchun mo'ljallangan.

Қисқартма со'злар руyxати

AMD	BMTning atrof muxit dasturi
AXMXD	Atrof-muxitni ximoya қilish milliy ҳarakat dasturi
BMT IO 'MK	Iқlim o'zgarishi bo'yicha muvaққат konvensiya
BMTChҚKK	BMTning Cho'llanishga қарши kurashish konvensiyasi
BMTOTOИИК	BMT Osiyo va Tinch okeani iқtisodiy va ijtimoiy komissiyasi
BMTTD	BMT Taraққиот dasturi
GSX	Global suv ҳамкорligi
GEJ	Global ekologik jamғarma
GEK MSMB	Global ekologik konvensiyalarni bajarishda mamlakat saloxiyatini milliy baxolash
DMSXK	Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo'jaligi komissiyasi
YeTTB	Yevropa tiklanish va taraққиот banki
JB	Jaxon banki
ITXB	Irrigatsiya tizimini ҳavzali boshқarish
MOIBMTMD	Markaziy Osiyo iқtisodi bo'yicha BMTning maxsus dasturi
MOMERBT	Markaziy Osiyo mamlakatlarining yer resurslarini boshқarish bo'yicha tashabbusi
MOP	Markaziy Osiyo respublikalari
MRM	Mingyllik rivojlanish maқсадlari
NNT	Nodavlat notijorat tashkilot
ODXD	Orol dengizi ҳavzasini bo'yicha dastur saloxiyatini milliy baxolash
OTB	Osiyo taraққиот banki
OKXJ	Orolni қutқarish bo'yicha xalқaro jamғarma
SRIB	Suv resurslarini integratsiyalashgan ҳolda boshқarish
SFU	Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi
TDKO'S	Turmush darajasini ko'taruchi o'rta davrdagi strategiya
TSBMR	Tuz va suvlarni boshқarishni milliy rejası
FAO	BMTning ozik ovқat va қishloқ xo'jaligi tashkiloti
Xқxtmg	Xalқaro қishloқ xo'jaligi tadқiqotlari bo'yicha maslaҳat guruxi
ChҚKSXD	Markaziy Osiyo respublikalari uchun cho'llanish va қurғоқчilikka қarshi submintaқaviy ҳarakat dasturi
shxt	Shanxay ҳамkorlik tashkiloti
YuNESKO	BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha dasturi
YuNEP	BMTning atrof muxit dasturi
XSB	Ҳavza suv xo'jaligi birlashmasi
CARNet	Atrof muxitni ximoyalash va barқaror rivojlanish bo'yicha

	Markaziy Osiy tarmofı
EUWI	Yevropa Ittifoқining suv bo'yicha tashabbusi
GWP	Global suv sherikchiligi
ICARDA	Қартоқчilik mintaqalaridagi kishloқ xo'jaligini tekshiruvchi Xalқaro markaz
RIOD	Chullanishga қarshi nodavlat va maxalliy tashkilotlarning kurashini mufiқlashtiruvchi Xalқaro tarmoқ
SIWI	Stokholm xalқaro suv instituti
WDI	Rivojlanishni jaxon ko'rsatgichlari
WEMP"	Orol dengizi ҳavzasida suv resurslarini va atrof muxitni boshkarish" GEJ loyixasi

MUNDARIJA

Kirish

1-bob. SUGVA GLOBAL VA MINTAKAVIY NAZAR	11
1.1. Suv global va mintakaviy istikbolda	11
1.1.1.Global suv inkirozi	11
1.1.2.Mintaqaviy suv muammolari va kelajakdagi taxdidlar	13
1.2. Global konvensiyalar va mintakaviy bitimlar	17
1.2.1.Global konvensiyalar	17
1.2.2.Mintaq aviy bitimlar	18
1.3. Xalqaro xamkorlik va donorlik faoliyati	20
1.3.1.Global va mintakaviy sheriklik	20
1.3.2.Donorlik faoliyati	22
1.4. Suv resurslari va ekotizimlarni integratsiyalashgan xolda boshkarish tamoyillari 23	23
1.4.1.Nega SRIB?	24
1.4.2.SRIB yondashuvlari	24
2-bob. SUV - O'ZBEKISTON UChUN MUXIM XAYOTIY RESURS	27
2.1. O'zbekistonning suv va yer resurslari	27
2.1.1.Umumiy tushuncha	27
2.1.2.Mavjud suv resurslari	32
2.1.3.Foydalanishga yaroqli suv resurslari	3
5	5
2.1.4.Daryolar oqimining o'zgarishi va uni boshq arish	36
2.1.5.Suv ta'minoti va suv-xo'jalik balansi	38
2.1.6 Irrigatsiya va drenaj infiltratsiilmasi	40
2.2. Suvdan foydalanish va O'zbekiston suv resurslarini ximoya қilish	43
2.2.1.Iqtisodiyot tarmoqlarining suv resurslaridan foydalanishi	43
2.2.2.Suv resurslari sifati	46
2.2.3.Daryo xavzalarida suv muammolari	49
2.2.4 Suv resurslari monitoringa va axborot tizimi	58
2.3. Suv yetkaznb berish va suvgan bulgan kelajakdagi talab	59
2.3.1.Suvga bo'lgan kelgusidagi extiyoj	59
2.3.2.Iqtisodiyot tarmoqlarida suvdan foydalanish istiqboli	60
2.3.3.Iklim uzgarishi sababli suvgan bo'lgan extiyojning o'zgarishi	65
2.3.4.Suvdan samarali foydalanishning iqtisodiy omillari va mexanizmlari	66
Z-bob. SUV RESURSLARINI BOSHKARISH VA ULARDAN FOYDALANISH	70
3.1.Suv resurslarini boshkarishga oid milliy siyosat	70
3.1.1.Suv xo'jaligi siyosati va isloxotlar	70

3.1.2.Milliy dastur va sarmoyalar	71
3.2. Suv resurslarini boshkarishning institutsional jixatlari	74
3.2.1.Davlat boshq aruv organlari	74
3.2.2.Suvdan asosiy foydalanuvchilar va iste'molchilar	77
3.2.3.Institutsional rivojlanishdagi muammolar	78
3.3. Suv resurslarini boshkarishning қonunchilikka oid jixatlari	80
3.3.1.Suvga doir қ onunchilikka bir nazar	80
3.3.2.Suv қonunchiliga oid ayrim kamchiliklar	82
3.4. Fuqarolik jamiyati va jamoatchidik ishtiroki	83
3.4.1 Fuq arolik jamiyati	83
3.4.2. Jamoatchilikning suv yetishmasligini bartaraf etish borasidagi ishtiroki	85
4-bob. DAVLATLARARO SUV RESURSLARINI BOSHKARISH MUAMMOLARI	88
4.1. Mavjud maқom va boshkaruvning xududiy tuzilmasi	88
4.1.1.Rivojlanish tarixi	88
4.1.2.Boshq aruvning mintaq aviy tuzilmasi	89
4.1.3.Xavzali suv xo'jaligi birlashmalar maқ omi va infratuzilmasi	91
4.1.4.Orolbo'yidagi vaziyatni barqarorlashtirishga oid ҳamkorlikdagi faoliyat	93
4.2. Davlatlararo suv resurslarini boshkarishga oid asosiy muammolar	95
4.2.1 Suvga oid shartnomalar va resurslardan birgalikda foydalanish muammolari	95
4.2.2. Suvdan foydalanish monitoringi va nazoratiga oid muammolar	99
4.3. Mintaqaviy ҳamkorlikka oid muammolar va istiqbol	101
4.3.1.Mintaq aviy ҳamkorlikka oid muammolar	101
4.3.2.Elektr energiyasi eksporti istiq bolı	103
4.3.3.Suv resurslarini integraniyalashgan xolda boshq arishga қo'shilishga doir majbu-riyatlar	105
5-bob. SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYaLAshGAN XOLDA BOSHKARISH - 108 O'ZBEKISTON KELAJAGI UChUN	
5.1.SRIBning asosiy mezonlari va strategii maқsadlari	108
5.2.Suv resurslarini integraniyalashgan xolda boshkarishni joriy etish uchun қulay 109 muxit yaratish	
5.3.Tajriba va orttirilgan saboқlar	112
5.3.1.Jaxon tajribasi va kelajak saboқları	112
5.3.2.Uzbekistan va Markaziy Osiyoda orttirilgan tajriba ҳamda saboқlar	114
ILOVALAR	119
FOYDALANILGAN ADABIYotLAR VA MATERIALLAR RO'IXATI	130

KIRISH

Suv - munosib xayot kechirish va insoniyatni rivojlantirishning asosiy manbaidir. Odamlar va ekotizimning suv resurslariga umumiy boqliqligi ularning manfaatlari, aynilsa, jamoatchi-lik farovonligining asosi bulgan ekotizimlarning ishlab chiqarish funksiyalarini ximoya қilishni xisobga olish zaruratida muxim o'rinn tutadi. Suvga nisbatan ortib borayotgan talablar-ni xisobga olish yuzaga keladigan muammolar va taxdidlarning nechoflik keng ko'lamga ega ekani-dan va «o'zgarib borayotgan dunyo xayoti»ga teran nigox bilan қarash lozimligidan yaqkol dalolat beradi.

Suv Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi va atrof-muxitini saqlashning asosiy omillaridandir. Mintaqal davlatlari keyingi paytda tez-tez takrorlanayot-gan қurfoqchilik, tabiiy ofat, chang-to'zon, toshkin va boshqa o'ta xavfli tabiiy jarayonlar sha-roitida birgalikda foydalaniladigan *suv resurslarini boiuqarish* borasidagi muammolarga duch kelmoqda. Suv resurslari taqchilligi Markaziy Osyoning barcha mamlakatlarida kuzatilmokda. Biroq bu muammo, aynilsa, O'zbekiston Respublikasida juda sezilarlidir. Negaki, O'zbekiston mintaqal davlatlari orasida tobora o'sib borayotgan axolisi va tabiiy ekotizimlarning ijtimoiy-iqtisodiy xamda ekologik extiyojlarini қondirish, barkaror rivojlanishni ta'minlash uchun suvga talab juda yuqori bo'lgan mamlakat xisoblanadi.

Uzbekistan Respublikasida axolini ijtimoiy muxofaza қilish va atrof-muxitni ximoya etish bo'yicha ishonchli kafolat xamda choralarining amalga oshirilishini taminlash o'tkazilayotgan iqtisodiy isloqotlarning barcha bosqichida davlat siyosatining eng asosiy ustuvor yunalishlaridan xisoblanadi. Tanlangan yo'ldan ofishmay borayotgan mamlakat raxbariyati iqtisodiyot soxasini erkinlashtirish orkali iqtisodiy isloqotlarni yanada chuqurlashtirish. institutsional o'zgartishlarni amalga oshirish, Suvdan foydalanuvchilar uyushmalarini (SFU) rivojlantirish, қishloq xo'jalik maxsulotlari ishlab chiqaruvchilarning xukus va iqtisodiy mustaqilligini kengaytirishga alovida e'tibor қaratmoqda.

Jamiyat suv muammolarini xal қilish va suv taqchillagini kamaytirish uchun қat'iy xarakatlarni amalga oshirish zarurligini anglab yetmoqda. Suv resurslarini boshkarishda mav-jud қoliplarga barham berish uchun suvdan foydalanish prinsiplari қayta ko'rib chiqilmoqda, қulay xamda maқbul choralar izlanmoqda. Shunisi e'tiborliki, aynan keyingi yillarda yuz ber-gan suv taqchilligi suvning naқadar uluғ ne'mat ekanligini anglab yetishga va xar bir odam mav-jud vaziyatning unglanishi uchun shaxsan nima қila olishi mumkinligi borasida uylashga undadi va bu suvdan tejab-tergab foydalanish an'analarining қayta tiklanishida muxim omil buldi.

Suv resurslarini boshkarish va atrof-muxitni ximoya қilish soxasidagi davlat dasturlari xamda rejallashtirilayotgan chora-tadbirlar milliy doirada cheklanib қolayotgani yo'k. Ular mintaqaviy xamkorlik strategiyalariga қo'shilishni, maxalliy va xorijiy tajribani xisobga

olgan xolda Orol dengizi ҳавзасида suv ҳамда energetika resurslarini birgalikda boshkarish buyicha uzaro foydali sheriklikni mustaxkamlashni ko'zda tutadi.

Ushbu ma'ruza keng jamoatchilikni O'zbekiston Respublikasida suv resurslaridan foydalanish, energetika tarmofini mustaxkamlash bilan boflik mavjud muammolar ҳамда ularni bartaraf etish yo'llari bilan tanishtiradi. Bu, o'z navbatida, mamlakatni barkaror rivojlantirish, mintaqaviy va milliy xavfsizlik, odamlarning o'zgarib borayotgan atrof-muxitni xisobga olgan xolda yashashini ta'minlashda yordam beradi.

Kitob besh bob, қисқacha ma'lumot va besh ilovadan iborat.

1-bobda asosiy e'tibor қуидagilarga қaratilgan: (i) yuzaga kelayotgan global suv taқchillign jidsiy tashvish tuғdirayotgan mintaqaviy muammolar va xavflar; (ii) suv-energetika resurslarini birgalikda boshkarish soxasidagi xalқaro va mintaqaviy shartnomalar, tashabbuslar va ҳamkorlik taxlili, Orol dengizi tanazzuli okibatlarini bartaraf etish choralar. Bundan

tashқari ushbu bob (iii) suv resurslarini integratsiyalashgan xolda boshkarish (SRIB) prinsip va yondashuvlarining қисқacha sharxini ҳам o'z ichiga olgan.

2-bobda O'zbekiston Respublikasining geografik joylashuvi, tabiiy-iқlim xususiyatlari va resurslari ҳақida ma'lumotlar keltirilgan, suv resurslaridan foydalanishning joriy muammo-larini, jumladan (i) daryolar oқimini taқsimlash va ularning uzgaruvchanligi, mintaqalarning suv bilan ta'minlanishi; (ii) suvdan iқtisodiyot tarmoқlari va daryolar ҳavzalari bo'yicha foydalanish; (sh) yer usti, yer osti, kollektor-drenaj suvlari sifati va suv resurslari monitoringi-ning axvoli; (iv) iқtisodiyot tarmoқlari bo'yicha ustuvor choralar, mexanizmlar va ҳarakat reja-lari, kutilayotgan o'zgarishlar sharoitida suvga bo'lgan extiyoj ҳақida so'z boradi.

Z-bob қуидagilarni baxolashga baғishlangan: (i) suv va energetika resurslarini boshkarish bora-sida ҳarakat dasturlari va rejalariga қисқacha sharx bergan xolda, suv ҳамда қishloқ xo'jaligi tarmoқlaridagi isloҳotlarni rivojlantirish; (ii) suv resurslarini boshkarishning institutsional va xukukiy jixatlari, jumladan barkaror boshkarishga erishish va atrof-muxitni ximoya қilish bo'yicha ҳarakatlarni cheklovchi kamchiliklar taxlili; (iii) fuқarolik jamiyatining suvdan foydalanish va suvni tejash borasidagi ishtiroti, shuningdek, ularning ekologiyaga oid dunyoқarashini shakllantirish, suv resurslarini integratsiyalashgan xolda boshkarish (SRIB) va barkaror rivojlanish ғoyalarni ilgari surish.

4-bob davlatlararo suv resurslarini boshkarish muammolari va қуидagilar taxliliga baғishlangan: (i) davlatlararo suv resurslarini boshkarishning mintaqaviy tuzilmasi faoliyati, Ҳavzali suv xo'jaliklari birlashmasining (ҲSB) mavjud maқomi va infratuzilmasi; (iii) daryolar irmoғi va Orol dengizining қurigan xududida buzilgan tabiiy ekotizimni қayta tiklash buyicha besh davlat sa'y-ҳarakati bilan қabul қilingan ҳamkorlikdagi ҳarakatlar ҳамда choralar; (iv) Sirdaryo va Amudaryo ҳavzasida davlatlararo muammolari, mintaqada suvdan foydalanish monitoringi, nazorati va қabul

қилинayotgan қарорлarni қo'llab-қuvvatlash tizimining axvoli; (v) Orol dengizi ҳavzasining suv-energetika resurslaridan birgalikda foydalanish bo-rasida mintaқaviy xamkorlik, elektr energiyasi eksporti istiқbollari va u bilan boғliқ ҳolda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar; (vi) davlatlararo ochiq suv oқimini maқsadga muvofik tarzda boshқarishga erishishda Rio-Konvensiyalar vositalari va sinergetik imkoniyatlarining roli, shuningdek, SRIB va suv ta'minoti bo'yicha rejalar ishlab chiқishga oid global majburiyat-larni amalga oshirish borasidagi rivojlanish.

5-boб қuyidagilarni uz ichiga olgan: (!) Uzbekistan va Markaziy Osiyoda SRIB joriy etish buyicha orttirilgan tajriba va saboқlar taxlili; (ii) қonunchilik bazasini takomillashtirish, tarmoқlararo muvofiқlashtirishni mustaxkamlash, jamoatchilikning keng ishtiroki, boshқaruв vositalarini institutsional rivojlantirish va yaxshilash orқali SRIB uchun қulay muxit yara-tishning asosiy vazifalarini baxolash; (iii) SRIB asosiy mezonlari va O'zbekistonda uning milliy strategiyasiga oid қarashlarning sharxi; (iv) SRIBni joriy etish bo'yicha xalқaro tajriba taxlili.

1 bob. SUVGA GLOBAL VA MINTAҚAVIY NAZAR

1.1. Suv global va mintaқaviy istiқbolda

1.1.1. Global suv nnқnrozn

Suv - yashash, oziқ-onқat maxsulotlari ishlab chikarish, sofliқni saқlash, munosib ҳayot kechi-rish va insoniyat rivoji uchun zarur asosiy resursdir. Jaxonda chuchuk suvni ishlatish xajmi yildan yilga ortib bormoқda, ayni paytda ko'p mamlakatlar axolining oziқ-onқat maxsulotlariga bo'lgan asosiy exтиyojlarini қondirish va ekotizimlarning

barəkarorligini saqlash uchun zarur darajadagi suv ta'minoti-da қiyingchiliklar sezmoqda. (1-ramka).

"Suv bo'yicha global xamkorlik" (SGX) tashkilo-ti ko'plab xalqaro manbalarning yaqinlashib kelayotgan suv inkirozi ҳaқidagi taxminlari-ni қuyidagi omillar asosida umumlashtirdi:

- odamlar jaxondagi umumi suv zaxirala-rining 0,4 foizidangina foydalanish im-koniyatiga ega;
- bugungi kunda 40 dan ortiq mamlakatdagi 2 milliarddan ortiq odam suv tanqisligini sezmoqda;
- ikki yoki undan ortiq mamlakatga tegishli bo'lган 263 daryo xavzasi mavjud;
- xar kuni 2 million tonna chiqindi suv xavzalariga tashlanadi;
- utgan asrning 90-yillaridagi tabiiy ofatlarning 90 foizi suv bilan boflik.

BMTning oxirgi (2004) baxolari shuni tasdiqlamoqdaki, xozirgi vaqtida: (i) 1,1 milli-ardga yakin odam toza ichimlik suvidan foyda-lana olmaydi; (s) taxminan 2,4 milliard kishi tegishli sanitariya nazoratidan o'tmagan suvdan foydalanadi; (iii) xar yili 2 millionga yakin bola dengiz suvi orqali yuqadigan kasal-liklardan vafot etadi; (iv) o'tgan o'n yillikda suvning ifloslanishidan vafot etgan odamlar soni OITS yoki xarbiy mojarolar sababli o'lganlardan ancha kup.

Keyingi o'n yilliklarda axoli o'sishi, iqtisodiyotning globallashuvi, sanoat rivoj-lanishi, qashshoqlik va ochlikka қarshi kurash yulidagi tadbirlar natijasida landshaft o'zgarib borishi kutilmoqda. Chunki bu umumi

SUV: Suvga oid faktlar

chuchuk suv zaxirasining **70-90** foizi rivojlanayot-gan mamlakatlarda ekinlarni yetishtirish uchun ish-latiladi;

kundalik extiyojni қondirish uchun axoli jon boshi-ga kuniga **50 litr** suv kerak (Dublin tamoyillari, 1992);

1 kg guruch yetishtirish uchun **3000 l** suv zarur;

xar bir inson bir yilda urtacha **58 kg** guruch is-te'mol қiladi;

sholining yangi navlarini chiqarayotgan seleksioner olimlar suv sarfini **50 foiz** kamaytirishni na-zarda tutmoqda;

bir buxanka (400 gramm) nonga ketadigan unni yetishtirish uchun **550 l** suv kerak ;

rivojlanayotgan mamlakatlarda 100 gramm mol gushti ishlab chiqarish uchun o'rtacha **1500 l** suv ish-latiladi;

rivojlangan mamlakatlarda 100 gramm mol gushti ishlab chiqarish uchun o'rtacha **7000 l** suv ishlatila-di;

yer osti suvlaridan foydalanishdagi bekarorlik sababli Xindistondagi **25 foiz** xosilning taqdiri doim xavf ostida turadi.

Mark Rosegrant va boshkalar ta'kidlaydiki, ozik-ovqat xavfsizligini ta'minlash va қishloq axolisi farovonligini yaxshilash uchun suforiladigan dexkonchilikni

rivojlantirish-da erishilayotgan yutuklar xayratlanarli, ammo orttirilgan tajriba shuni ko'rsatmoqdakn suforishni boshkarishdagi nomuvofiklik at-rof-muxit tanazzuliga, shu jumladan suvning juda kamayib ketishi va sifati pasayishn botkoqlanish, tuproqning pgurlanishi va saxrolashishga olib keladi [50]. Jaxon resurslari instituti (WRI, 2000) ma'lumotlariga kura, sunggi 50 yil davomida kishloq xo'jaligi yerlarining 60 foizga yakini eroziya, shurlanish, zichlanish, tarkibida ozik modda-lar, biotsenozning kamayishi va ifloslanish natijasida turli darajada zavol topgan. Say-yoramizdag'i suforiladigan yerlarning undan bir kismi sho'rlangan, bu esa dunyodagi boshokli ekinlar yetishtirishning 10 foizga kamayib ketish xavfini tufdiradi (FAO, 2002). Bundan tashkari, ekologik xizmatlar sifati va miqdori yomonlashuvining ortib borayotgani suv va ekotizimlarni tobora ko'proq xavf os-tiga қуymoqda. Dunyodagi suforiladigan dexkonchilik uchun yaroqli yerlarning yarmi notufri drenaj sababli yo'kotilganligi aniqlangan. Bunga ko'shimcha ravishda, o'rmonlar jadal suratda kamaymoqda, bu esa eroziyaning jadallahishiga olib kelmoqda, daryolar va suv omborlaridagi cho'kindilar xajmi ortmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda 80-yillarning boshidan beri urmonlarning maydoni ortib borayotganiga qaramay, rivoj-lanayotgan mamlakatlarda ular 10 foiz kisqardi. Ko'p xollarda urmonlarning kamayi-shiga kishloq xo'jaligi bilan boflik faoliyat-ning kengayishi, daraxtlar kesilishi, yo'llar қurilishi sabab bo'lmoqda.

2050 yilga borib o'sib borayotgan axolining (9 milliard) extiyojlarini ta'minlash uchun ozik-onkat maxsulotlari ishlab chiqarishning oshi-shi xamda tabiiy ekotizimlar barqarorligining saklab қolinishi tufayli uzgarishlar katta bo'lishi mumkin. Kit'alar buyicha oladigan bo'lsak, axolini ozik-onkat bilan ta'minlash uchun (suforishni rivojlantirish yoki lalmi ishlab chiqarishni takomil-lashtirish yordamida) suvga extiyoj Afrikada uch baravar, Osiyo mamlakatlarida ikki bara-var ko'payadi (1.2-ramka). Extimol, o'zgarishlar sanoat rivojlangan mamlakatlarga xam yoyili-shi mumkin, ular suvning virtual eksportiga қushilishi, ya'ni suv tanqis bo'lgan rivojlna-yotgan mamlakatlarga eksport uchun ko'proq ozik-onkat maxsulotlari ishlab chikarishi mumkin. Suforishni yoki "xar tomchisi - zarga teng" ti-zimini rivojlantirish, xaydaladigan yerlar-ni kengaytirish yoki ozik-onkat importida virtual suvni ko'paytirish xisobiga ob-xayotga bulgan kelgusi extiyojlarni қondirish daraja-si sayyoramiz mintaqalari buyicha keskin fark kildi. Yer yuzi axolisini to'ydirish uchun suvga ortib borayotgan extiyoj xisob-kitoblari suv-yer resurslari va ekotizimlarni integratsiyalashgan boshkaruvning kelajakdagi muammolari ko'lmini va "o'zgarayotgan dunyoda yashashga" puxta tayyorlanish zarurligidan dalo-lat bermoqda.

Insoniyat uzgarayotgan sharoitga moslasha oli-shi uchun tabiiy jarayonlar dinamikasini ij-timoiy, atrof-muxit bilan boflik jarayonlar bilan birga, masalan ijtimoiy va ekologik jarayonlarning birgalikdagi evolyutsiyasini kurib chiqishi kerak. Yashash muxitining o'zgarishiga odamlarning e'tibori boshqa mav-judotlarnikiga nisbatan kamroq seziladi va

jamiyat yuz berayotgan o'zgarishlarga ongli ravishda munosabat bildirishi uchun ularni anglab yetmofi lozim.

Van der Liuv va boshqalarning insonning O'rtayer dengizi mintaqasidagi 20000 yillik iqtisodiy faoliyati mobaynidagi atrof-muxit tanazzuliga doir sunggi tadqiqotlari yangicha fikrlashni shakllantirishga katta xissa қushmoқda (M.Falkenmark, 2003). Mazkur tadqiqotlar unumsiz yerlar, қurfoқchiliklar, Ispaniyadagi keskin suv toshkinlari, Gretsya janubidagi yerlarning sho'rланishi va suv resurslarining yomon boshkarilishi, tektonik jarayonlar va odamlarning iqtisodiy faoliya-tining Gretsya pshmol-farbidagi usimlik ola-miga ta'siri xamda Fransiyadagi Rona daryosi vodiysida yetti ming yil davomidagi iqtisodiy faoliyatni қamrab olgan. Erga si-vilizatsiyalar tomonidan tabiiy resurslar-ning ortiqcha ishlatalishi mingyilliklar davomida atrof-muxit tanazzuliga olib kelgan edi. Ba'zida bu tanazzul shunchalik kuchli bo'lganki, butun boshli sivilizatsiyalarni xalokatga olib kelgan. (1.3-ramka).

"Bugun sayyoramiz uqolisi - olti milliard in-son suvdan sanday foydalanish borasida yakdil sarorga kelishi kerak. Yakuniy natija ularning yaxshi niyatlariga boglits" - deb xisoblaydi BMT xuzuridagi ekologiya muammolari bo'yicha komissiya a'zosi Mark M.Braun.

Ochlikka қарши kurashish uchun suvga extiyojning ortishi

Rokstromtning xisob-kitoblariga kura (2002), bu-gungi minimal talabni yiliga 1200m³ yashil oқim (evapotranspiratsiya) ta'minlashi mumkin, oziқ-onқat maxsulotlari ishlab chiқarish nisbatiga xisoblaganda bu yiliga 7000 m³ tashkil etadi. Oziқ-onқat maxsulotlari ishlab chiқarish uchun zarur suv resurslari yiliga 1300 m³ yetadi (FAO). 2050 yilga borib yer axolisi soni 9 milliardga yetadigan bo'lsa, oziқ-onқat yetishmasligi masalasi-ni xal қilish uchun қo'shimcha ravishda yiliga 5600km³ topilishi kerak. Shundan yiliga 2200km³ tuyib onқatlanmaslikni bartaraф etish uchun, қolgan yiliga 3400 km³ - ko'payib borayotgan axolini to'ydirish uchun zarur. Yanada takomillash-gan suforish yiliga 800 km³ berishi mumkin, "xar tomchisi - zarga teng" tizimini rivojlantirish esa taxminan yiliga 1500 km³ beradi. Kolgan yiliga 3300 m³ shudgor zaxiralaridan foydalanish (mavjud yaylovlar va o'rmonlar) xamda xaydaladigan yerlarni kengaytirish xisobiga ta'minlanishi kerak. {M.Falkenmark,2003.}

1.3 - ramka

Tinch okeanidagi Pasxi oroli sivi-lizatsiyasining ravnaқi va xalokati

Pasxa orolining markazlashgan va yaxshi tashkil etilgan jamiyat қo'shni uruflarga o'z xukmini o'tkazish xamda o'zidan ilgarilab ketganlardan o'zib ketishni istagan sardor tomonidan қilingan xatti-ҳarakatlar tufayli tabiiy o'rmonlar ekotizimi-ning deyarli to'la saxrolashishiga olib kelgan. Urmonlarning yo'kolishiga asosiy sabab esa dengiz-dan uzoқdagи konlarda yasalgan ulkan tosh xaykallarni soxildagi platformalarga tashish uchun daraxtlarni kesib ishlatalish bo'lgan. Ikki yuz-ta ulkan xaykal xaligacha turibdi, shu bilan birga yana yetti yuztasi tayyorgarlik bosқichida, vayron bulgan ekotizim қurshovida қolib

ketgan. Extimol, aynan urmonlarning yo'q қилинishi shamolning ku-chayishi va suv eroziyasiga olib kelgan va mavjud ekotizimning yashovchanligiga putur yetkazgan (Van der Liuv, 2000).

1.1.2. Mintaqaviy suv muammolari va kelajakdagি taxdidlar

Asosiy muammo

Yevroosiyo қит'asining markazida, savdo yullari chorraxasida joylashgan Markaziy Osiyo o'zining geosiyosiy va iqtisodiy axamiyati, tabiiy insoniy resurslarining boyligi hamda savdo va transport uchun tranzit imkoniyatlarining kengligi tufayli butun dunyoda o'ziga katta e'tiborni jalg etib kelmoqda. Markaziy Osiyo xalqlarini umumiy tarix, madaniyat, til, din va ananalar bir-lashtirib turadi. Biroq, mintaq'a to'fridan-tufridengizga chikaolmagani, dunyo bozoriga chiqish, xavfsizlikni ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ko'llab-kuvvatlash masalalarida yaqin ko'shnilarini va xalqaro xamjamiyatga ko'p jihatdan boflik. Suv va energetika resurslari - Markaziy Osiyo davlatlarini birlashtiruvchi yana bir omil. Daryolar irmofida joylashgan tofli mamlakat-lar (Kirgiziston va Tojikiston) juda katta chuchuk suv zaxiralari va ulkan gidroenergetik saloxiyatga ega. Daryolarning o'rta va қuyi oqimi mamlakatlari (O'zbekiston, Qozofiston va, ayniqsa, Turkmaniston) қazib olinadigan yoqilfining katta zaxiralariga ega. Ammo suv va suforiladigan dexkonchilik bilan bevosita yoki bilvosita boflik axolining xayotini ta'minlash borasida "yuqoridagi ko'shnilariga" boflanib қolgan.

Suv Markaziy Osiyo mamlakatlarining ijgi-moiy-iqtisodiy va ekologik farovonligi uchun xal қiluvchi omil xisoblanadi. Mintaq'a suv resurslarining 80 foizdan ortifi Kirgiziston va Tojikistondagi abadiy muzliklar va қorlar xisobiga ta'minlanadi. Suforiladigan dexkonchilik ob-xayotni Uzbekistan, Qozofiston va Turkmanistonga olib keluvchi Amudaryo va Sirdaryoning axoli zikh joylashgan vodiylari-da markazlashgan.(1.1 -rayem).

Markaziy Osiyo mamlakatlari, ayniqsa, Sirda-ryo va Amudaryo қuyi oqimida yashaydigan axoli, yigirma yillardiki, suv yetishmaslidan va buning **IJTIMOY-IQTISODIY** oqibatlaridan jabr chekmoqda. Ular orasida O'zbekiston kuproq zarar ko'rmoqda, chunki eng ko'p suforish maydonlari (4,3 mln.gektar), қishloq axolisi soni (16 mln. kishidan ortik) va axoli zichligi darajasi (54,6 kishi/km², Andijon viloyatida eng ko'p - 520,5 kishi) aynan shu yerda. Suvga extiyoji katta bo'lismiga қaramay, suvning che-garalar osha kelish tartibi va xajmiga o'z ta'sirini o'tkazish borasida O'zbekistonning imkoniyatlari cheklangan, chunki mamlakat daryolar oqimining o'rtasida joylashgan.

Suv resurslarining yetishmasligi ozik-onkat ishlab chikarishda yer resurslari yetishmaslidan ham kattaroq cheklowlarga sabab bo'lmoqda. Suforiladigan dexkonchilik barcha suv sarfi-ning 95 foizini iste'mol қilmokda. Jadal sur'atda ko'payayotgan axolining ozik-onkat xav-fsizligini ta'minlash uchun suvga extiyoj to-bora ortib boraveradi. Shu sababli o'rta mud-datli istiqbolda suforiladigan dexkonchilik va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o'rtasida hamda maxalliy darajada suvni taqsimlash borasida manfaatlarning

o'zaro to'knashuvi yuz berishi mumkin. Suvdan foydalanishning sa-maradorligini oshirish, suvni adolatli taqsimlash, extiyoja қarab ish tutish, daryo-larning yuқori va қuyi oқimlaridagi mintaqalar, suv iste'molchilar va ekotizim-lar urtasida kelishuvga erishish O'zbekiston va Orol dengizi xavzasidagi boshqa davlatlar uchun muxim xayotiy masalalardandir.

Muammo kulami kengaimoқda

Markaziy Osiyo mamlakatlari odamlarning ichimlik suviga bo'lган extiyojini қondirishga ustuvor masala sifatida қarasa-da, Amudaryo va Sirdaryo ҳavzasidagi axolining toza ichimlik suvidan baxramand bulish imkoniyatlari bir muncha cheklangan va bu, avvalo, kam ta'minlanganlar ҳamda xotin-қizlar turmushida kuproq kuzga tashlanadi. Maishiy va ichimlik extiyojlari uchun zarur suv bevosita daryolar yoki kanallardan iste'mol қilinadi. Daryolarning o'rta va қuyi oқimidagi istemolchilar, ayniqsa, Amudaryo қuyi oқimida, iste'mol қilayotgan suvning si-fati nisbatan past (ba'zi oylarda! dare su-vidagi қattik cho'kindilar 1,6 g/l dan 2,3 g/l gacha). Ular muqobil suv manbalariga ega emas. Suvning ofir metallar, fenollar va boshqa toksik moddalar bilan zaхарланishi ortmoқdaki, bu odamlarning salomatligi. xayoti va yashash muxiti uchun xavflidir. Daryolar қuyi oқimidagi tashvish uyғotuvchi ҳolatdan tashқari Farfona vodiysida (Moylisuv daryosining jiddiy ifloslanishi), Zarafshon daryosi vodiysida va Amudaryoning yuқori oқimida (Uzbekiston chegarasidan 10 km uzoklikda joylashgan Tojikiston alyuminij zavodi tomonidan suv va atrof-muxitning ifloslantirilishi) jidsiy xav-flar mavjud. Minerallashgan suvlarni chu-chuklantirish o'ta murakkab jarayon bo'lmasa-da, bunday texnologiyani o'rnatish, undan foydalanish ancha muncha xarajat talab bo'lgani bois ayrimlari қishloқ axolisi uchun ofir mo-liyaviy yuk bulishi mumkin. Suv ta'minoti imkoniyatlari cheklangan axolining kam ta'minlangan қatlamlari bu borada ayniqsa ximoyaga muxtoj. Ayniqsa, қishloқ joylarida suv ta'minoti va sanitariya talablarini қondirish kelgusida mintakadagi eng jidsiy muammolarsan biriga aylanishi mumkin.

Sovet Ittifoқidan meros sifatida Markaziy Osiyoda tarmoқli suv infratuzilmasi қoldi. O'tgan asrning 60-yillarida yaratilgan ushbu infratuzilma mintaka ijtimoiy ҳayotidagi o'ziga xos voқea bo'lган edi. Sovet davrida katta to'fonlar, nasos stansiyalari, kanallar va inshootlardan iborat infratu-zilmadan foydalanish va xizmat ko'rsatish xarajatlarining (F&X) deyarli barchasi umumittifoқ byudjetidan қoplanar edi. Mustaqillikka erishilganidan so'ng boshқaruв va texnik foydalanishga oid funksiyalar ay-ni mamlakatlarning o'z chekiga tushdi va ular moliyaviy resurslar yetishmasligi ҳamda mintaqaviy ҳamkorlik mehanizmlari shakl-lanmaganligi sababli xizmat ko'rsatish va foydalanishni yetarlichha ta'minlay olmadi. Bu xol infratuzilma imkoniyatlarining kes-kin pasayishi, yerlarning botқoқlanishi, shurlanishi, tabiiy ekotizimlarningz iflos-lanishi va tanazzuli ҳamda suv ta'minotida-gi jidsiy uzilishlarga olib keldi. Ba'zi xisob-kitoblarga ko'ra, suv resurslaridan foydalanish samarasining pastligi sababli mintaka xar yili 1,7

milliard AKSh dollari (yoki YaIMning 3%) yo'qotmoqda, қishloq xujaligi ishlab chikarishining yillik pasayishi esa 2 milliard dollar baxolanmoqda. Mavjud F&X tizimining samaradorligi xozirgi darajada saqlab turilishi yaqin kelajakda butun mintaka suv infratuzilmasi xavfsizligiga xavf soladi, jamiyat va at-rof-muxit uchun iqtisodiy va ekologik falo-katlar xavfini oshiradi.

Markaziy Osiyoda energetika masalalari xam muxim mintaka vi ahamiyatga ega, chunki mam-lakatlar elektr uzatish liniyalari, elektro-stansiyalar, neft va gaz қuvurlari tarmoqlari bilan o'zaro boflangan. Markaziy Osiyoning yagona energetika tizimi avvalida mintaka viy, ya'ni Qirgiziston va Tojikiston gidroenergiyasidan foydalanishga asoslangan tizim sifatida shakllantirilgan bo'lib, ushbu tizim barcha mamlakatlar o'rtasida energiya manbalari almashinuvini ta'minlagan edi. 90-yillarning birinchi yarmida barcha mamlakatlarda elektr energiya si iste'molining 20 foiz pasayishi kuzatildi, Janubiy Kozofistondan boshqa ҳamma joyda uni barqarorlashtirishga erishildi (1.2-rasm). Elektr energiyasini iste'mol қilish daraja-sining pasayishi mamlakatlar o'rtasida elektr energiyasi almashinuvining 75 foiz қisqarishi bilan bir sharoitda kechdi. U so'nggi 6-7 yil ichida umumiy iste'molning 4-8 foizini tashkil қilardi. Turli taxminlarga kura, keyingi 25 yil davomida elektr energiya-sini iste'mol қilish 35-80 foiz ortadi, foy-dali қuvvatlarga talab 2025 yilga kelib 530012000 MVt atrofida bo'ladi. Xozirgi iqtisodiy sharoitda aniqrok iqtisodiy tax-min aytish қiyin, chunki mavjud қuvvatlar es-kirgan va almashtirilishi va kuchaytirilishi zarur. Vaxolanki, BMT Taraqqiyot dasturining taxminlariga ko'ra (2005) Markaziy Osiyo yaqin kelajakda, ayniqla, neft-gaz tarmofini rivojlantirish xisobiga dunyodagi yirik energiya yetkazib beruvchi mintaka ga aylanish uchun barcha imkoniyatlarga ega [33].

Markaziy Osiyo suv va energetika tizimining tanazzul xolati kelajakdag'i iqtisodiy taraqqiyot va mintaka da ekologik xamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun xavf tukdiradi. Bu suv oqimini mavsumga қarab қayta taqsimlash jarayonida ayniqla yaqkol ko'zga tashlanmoqda. Ayni masala nafakat «energetika-irrigatsiya» soxasida, balki «yuqori-қuyi oqim» munosabatlarida mojaro tukdirishi mumkin. Natijada mamlakatlar o'rtasida nizo xavfi ortib bormoqda. Yaqkol misol - Orol dengizining қurishi fojiasi va 1990-2000 yillarda yer osti suvi miqdori yuqori bo'lgan yerlar maydoni umumiy suforish maydoniga nisbatan 25 foiz-dan 35 foizgacha oshdi; sho'rangan yerlar maydoni 57 foiz (Amudaryo ҳavzasasi) va 79 foiz (Sirdaryo ҳavzasasi) ko'paydi: Qirgizistonda қishloq xo'jaligi yerlarining 51 foizi va Tojikistonda 97 foizi tuproq eroziyasiga uchradi.

uning oqibatlariz. Orol fojiasi xududida tabiiy ekotizimlarning xozirgi aqvoli mintaka mamlakatlarida suvdan foydalanish va қishloq xo'jaligini yuritish tajribasidan ke-lib chiqadigan eng yirik muammoga misol bula oladi. Boshqa ekologik muammolar orasida cho'llanish, daryolarning ifloslanishi, urmonlarning kamayishi, chorva mollarining boqilishi va ozuqa қuvvatining pasayishi, bioxilmaxillikka putur ketishi, inson va

at-rof-muxit ҳayoti va xavfsizligini ta'minlash tizimi uchun muxim bulgan ekotizimlar va bio-geokimyoviy sikllar tuzilmasi va funksiyala-rini buzuvchi boshqa jarayonlar bor.

Markaziy Osiyoning kup millionli axolisi va ҳayotni ta'minlash tizimlari tabiiy ofatlar, қurfoqchiliklar, қум bo'ronlari, zilzilalar, suv toshqinlari kabi o'ta xavfli tabiat xodisalari ta'sir doirasida joylashgan. In-sonning juda nozik ekotizimlarga tiklab bo'lmaydigan darajada zarar yetkazayotgan notufri xujalik yuritish faoliyati sababli bunday xavf kuchaymoqda. Iqlimni kuzatishlar asosidagi ayrim taxminlarga ko'ra, Sirdaryoda suv resurslari 30%, Amudaryoda 40% kamayishi kutilmoqda. Boshqa taxminlar bo'yicha esa suv resurslarining bunchalik keskin kamayishi kutilmayapti. Shunday bo'lsa-da, barcha taxminlar dan kelib chiqadigan xulosa shulki, suvga bo'lgan extiyoj mavjud suv resurslaridan kura tezroq o'smoqda. Xo'jalik faoliyati kengayishi-ning kutilayotgani daryolar oqimi, global iqlim va namlikka o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi, Markaziy Osiyoning cho'l va yarim saxlo xududlarida suv resurslari tanqisligi muammosi yanada kuchayadi.

BMT Taraqqiyot dasturi taxlili (2005) shuni kursatadiki, milliy idoralarning yuz berishi mumkin bo'lgan tabiiy ofatlarga tayyorgarlik kurish va ularning oqibatlarini bartaraf etishga doir imkoniyatlari cheklanganicha қolmoqda. Pay do bo'lishi mumkin xavflarning jiddiyligi mavjud bilimni yangilash va chuqurlashtirish, mintaka darajasida suv resurslari monitoringa tizimidagi kamchilik-larini to'la aniqlash zaruratini tufdiradi. Bu tabiiy tizimlar o'zgarayotgan sharoitda suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash uchun o'ta muxim vazifa xisoblanadi va u Markaziy Osiyodagi barcha davlatlarning birgalikdagi sa'y-xarakatlari bilangina ado etilishi mumkin.

O'tgan o'n yil davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari davlatlararo suvlarni boshkarishdagi ҳamkorlik yo'lida muayyan қадamlar tashladi, davlatlararo mojarolar yuz bermadi. Ular suv energetika resurslaridan birgalikda foyda-lanishga doir doimiy muzokaralar va turli ta-shabbuslarda ishtirok etmoqda. Xozirga paytda ZDMSXK IAM tomonidan Maunteyn anlimited 8s Sayntifik informeyshn bilan birgalikda utkazilgan oxirgi tadqiqotlarga ko'ra (2003), Orol fojiasi oqibatida O'zbekiston ko'rgan bevosita va bilvosita ijtimoiy-iqtisodiy zarar yiliga 144 million AKSh dollarini tashkil etdi (axoli jon boshiga taxminan 5,7 dollar yoki YaIMning 1,8 foizi).

Amudaryo xavzasasi suv-energetika majmuidagi vaziyat uncha jiddiy emas, birok Norin-Sirdaryo kaskada bo'yicha ligi Umumiy bitimga muvofiq tuziladigan xar yilgi shartnomalar-ning amalga oshirilishini қoniqarli deyish қiyin. Bu esa butun Sirdaryo xavzasidagi axolining ҳayot ta'minoti, daromadi va xav-fsizligiga taxdid solmoqda. Muammoni yana shu narsa murakkablashtirmoqdaki, milliy darajada xali ҳam idoraviy yondashuvlar va ilgari xukmron bo'lgan "yuqorining ra'yiga қarash" boshkaruv tizimi saqlanib қolgan. Masalan, barqarorlik va miqdor, sifatning zarariga қisqa muddatli iqtisodiy foyda ustun қuyilganida shunday bulmoqda. Bu uzi bularchilik va muvofiqlashtilmagan rivoj-lanishga olib kelmoqda, suv resurslarini boshkarish va

foydalishni қиycinlashtirmoқда ҳамда bir kun kelib nixoyasiga yetadigan resurs uchun raқobatni keskinlashtirmoқda.

Bugun O'zbekiston, Markaziy Osiyoning boshқа davlatlari kabi, suv va ekologiya muammolari-ning yechimini izlash, oқibatlarini kamayti-rish va imkon қадар bartaraf etish zarurati bilan to'қnash kelmoқda. Ҳам odamlar, ҳам eko-tizimlarning suv resurslariga umumiy boғlikligi ularning manfaatlarini xisobga olish, ayniқsa, jamiyat farovonligining poy-devori xisoblangan ekotizimlarning ishlab chiқarish funksiyasini ximoya қilishni тақozo etadi. Chunki iқtisodiy faoliyat, yer resurslaridan foydalish, biomassa ishlab chiқarish, suv manbalarining ifloslanishi va sifati-ning yomonlashishi tufayli suvning ekologik funksiyalari muntazam buzilmokda, chuchuk suv oқimi va ekotizimlar o'rtasidagi biotik o'zaro aloқalar muxim muammoga aylanmoқda. Bundan tashқari, suvning turli funksiyalari o'rtasida murosani topish lozim - bu vazifa axoli, sano-at va irrigatsiyani suv bilan ta'minlashdagi oddiy sa'y-ҳarakatlardan ko'ra murakkabroқ. Muammo suvni ishlatish va bitimlarga rioya etishdagi ustuvorliklarning kelishilmaganli-gi ҳамда ziddiyati bilan yanada keskinlashmoқda. Bu esa joylarda, ayniқsa suv kam va қуриқчilik paytlarda ziddiyat va mojarolarni kuchaytirmoқda.

Shubxasiz, bu bitimlarda ishtirok etayotgan barcha mamlakatlар sa'y-ҳarakatlari, yagona masuliyat va xamkorligi ekologik va ijtimoiy maқbul murosaga erishish ҳамда suv resurslari va atrof-muxitni integratsiyalashgan boshқaruvni joriy etish uchun o'ta zarur. Bu-ning uchun қарорлarni rejalashtirish va қабул қilish jarayonlarida jamoatchilikning ishtirok etishi usullarini topish ҳам muxim. Chunki bu xol nizolarning oldini olish va mintaqada barқarorlikka erishish imkonini beradi.

1.2. Global konvensiyalar va mintaқaviy bitimlar

1.2.1 Global konvensiyalar

Orol fojiasi jabrini tortayotgan Uzbekistan Respublikasi, Markaziy Osiyoning boshқа davlatlari kabi, tabiatni muxofaza қilish buyicha global faoliyatda ishtirok etish zaru-ratini anglab yetgan. Xozirgi vaqtida Respublika uchta Rio Konvensiyasiga қо'shildi - Iқlim o'zgarishi bo'yicha umumiy konvensiya, Biologik xilma-xillik to'ғrisida konvensiya, Saxrolashishga қarshi kurash to'ғrisida konvensiya ҳамда atrof-muxitni muxofaza қilish va barқaror rivojlanish soxasidagi қator xalқaro konvensiyalar, bayonnomalar, bitimlar va o'zaro anglashuv memorandumlar ҳам shular jumlasidandir.

Rio-konvensiyalar doirasidagi ҳамkorlik to-monlar xar bir bitimning ijrosidan maksimal foyda olishi va ayni paytda sa'y-ҳarakatlarning takrorlanishiga yul қуymaslik maқsadida amalga oshirilmokda. Bu konvensiyalarning xar biri o'ziga xos maқsadlar, vazifalar va shartlarni belgilab bersa-da, ularning xammasi tabiiy ekotizimlar tarkibiy қismlari, yerning suv, yer va boshқa resurslari kabi, uzaro boғlik. Mazkur uch xujjat chora-tadbirlar borasida bir-birini to'ldiradi va kuchaytiradi ҳамда saloxiyatni oshirish buyicha ҳар tomonlama

tadқікотлар olib borish, o'қitish, monitoring tashkil etish, strategiya va chora-tadbirlar dasturini ishlab chikish, axborot almashishga oid umumiy majburiyatlarni o'z ichiga oladi. Uzbekistan global atrof-muxitni boshқarish bo-rasidagi boshқa muxsm bitimlardan tabiatni muxofaza қilish bo'yicha BMT ko'magida қuyidagi konvensiyalarni ratifikatsiya қылган va ular yuzasidan o'z majburiyatlarini to'la bajarmoқда: Ozon қатlamini ximoya қilish to'frisidagi Vena konvensiyasi (18.05.1993);

- Ozon қатlamini parchalovchi moddalar buyicha Montreal protokoli (18.05.1993) va unga London (1998) va Kopengagen (1998) tuzatishlar;
- Tabiiy muxitga ҳарbiy yoki biror-bir boshқa dushmanlarcha ta'sir vositalaridan foydalanishni тақиқлаш to'frisidagi konvensiya (26.05.1993);
- Xavfli chikindilarni davlatlararo orқali tashish va ularni yo'қotish ustidan nazorat to'frisidagi Bazel konvensiyasi (22.12.1995);
- Umumjaxon madaniy va tabiiy merosni muxofaza қilishga oid konvensiyalar (22.12.1995);
- Yovvoyi fauna va floraning yo'қ bo'lib ke-tish xavfi bor turlarining xalқaro sav-dosiga oid konvensiyalar (01.07.1997);
- Yovvoyi ҳayvonlarning ko'chib yuruvchi tur-larini saқlash bo'yicha konvensiya (01.05.1998);
- Asosan suvda yashovchi ҳayvonlarning yashash joyi sifatida xizmat қiladigan suv-botқoқliklar to'frisidagi Ramsar konvensiyasi (30.08.2001).

1.2.2. Mnntaқavnn bitimlar

Uzbekiston Davlatlararo suv oқimlari va xalқaro ko'llarni ximoya қilish va ulardan foydalanish tufrisidagi konvensiya ҳамда Xalқaro suv oқimlaridan foydalanishning ke-ma yurmaydigan shakllari xиқуқи to'frisidagi konvensiyani imzolamagan. Ayni paytda. Uzbekistan vakillari bu konvensiyalar buyicha tomonlarning konferensiyalari va mintaқaviy uchrashuvlarida kuzatuvchi sifatida қatnashadi.

Taxlillar shuni ko'rsatmokдaki, yuқoridagi global ekologik konvensiyalarda O'zbekistonning ishtirok etishi atrof-muxitni muxofaza қilish, suv va yerdan oқilonan foydalanish, cho'llanishga қarshi kurashish, tegishli milliy, submintakaviy va xalқaro mu-assasalar orқali қуғоқчilik oқibatlarini kamaytirish soxasida ikki tomonlama va kup tomonlama ҳamkorlikni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Uzbekiston Respublikasi vakillari konvensiyalar ishtirokchila-ri bo'lgan mamlakatlar konferensiyalari, ta-biatdan foydalanish, cho'llanish va қуғоқchilik muammolari buyicha xalқaro semi-narlar va simpoziumlarda faol қatnashmoқda, konvensiyalar kotibiylatlari, BMT Taraққiyot dasturi, boshқa xalқaro va mintaқaviy tashki-lotlar va dasturlar bilan aloқani belgilangan tartibda yo'lga қo'ygan.

Ta'kidlanganidek, Markaziy Osiyoda suv o'ta muxim muammolardan xisoblanadi va bu muammo yildan-yilga yanada keskinlashmoқda. Suv resurslariga mavsumiy extiyojlardagi farqlar nomutanosib taқsimot bilan birga ke-lishmovchiliklar kelib chiқishi

z^hchun sabab bulmoqda. Bu kelajakda mintaka mamlakatla-rining iqtisodiy axvoliga ko'p jixatdan ta'sir kiliishi mumkin.

Markaziy Osiyodagi barcha mamlakatlar oldida birgalikda ishlataladigan *suv resurslarini bo'içarishda* қuyidagi muammolar turibdi:

- irrigatsiya tizimi axvolining yomonlashi-shi, samarasiz boshkaruv va infratuzil-mani ta'minlash xarajatlarining keskin usishi;
- suvni notufrni va nomutanosib taqsimlash, oqibatda suvni isrof қilish va suv tanqisligining paydo bo'lishi;
- daryolarning yuqori va қuyi oqimlarida joylashgan xududlar o'rtaida ziddiyat-ning keskinlashishi, tarmoqlararo, asosan, gidroenergetika va suforiladigan dexkonchilik urtasida mojarolarning kupayishi, milliy iqtisodiyotning rivo-jiga salbiy ta'sir kiliishi mumkin.

O'zbekiston istiqlolga erishgan paytdan bosh-lab Markaziy Osiyo suv-energetika resurslarini birgalikda boshkarish soxasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlar va mintakaviy tashabbuslarda faol ishtirok etib kelmoqda. Bir қator xukumatlararo xujjatlarning imzolanishi Orol ҳavzasidagi mamlakatlar o'rtaida mulokot va ҳamkorlikni mustaxkamlashda muxim omil bo'ldi. (1-ilova).

1993 yili ekologik inqirozga barxam berish va Orol dengizi ҳavzasida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilash uchun Markaziy Osiyo davlatlari raxbarlari tomonidan *Orol-ni sutkarish xalsaro jomgarmasi* (OKXJ) tashkil etildi. U uz faoliyatini қuyidagi xukumatlararo bitimlar asosida olib bormoqda:

- Orol dengizi va Orolbo'yi muammosini xal қilish, Orol mintakasini ekologik soflomlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha birgalikda sa'y-xarakatlar to'frisidagi bitim (Kizil O'rda, 1993 yil 26 mart);
- Қozofiston, Қirfiziston, Tojikiston. Turkmaniston va Uzbekistonning mintakaning ijtimoiy-iqtisodiy rivoj-lanishini xisobga olgan xolda Orol va Orolbo'yi muammolarini xal қilish kon-sepsiyasi (asosiy қoidalar, 1991-1992 yillarda ishlab chikilgan);
- Orolni қutkarish xalqaro jamfarmasi tufrisida nizom (OKXJ) (Dushanbe, 2002 yil, iyun);
- Orolni қutkarish xalqaro jamfarmasi (OKXJ) va uning tashkilotlarining maқomi tufrisida bitim (Ashxobod, 1999 yil 9 aprel).

OKXJ tashkil etilganidan beri Markaziy Osiyo davlatlar raxbarlari va mintaka mamlakatlari xukumatlari tomonidan jamfarmaning joriy va istiqboldagi vazifalari yuzasidan bir қator strategik қarorlar қabul қilindi. Ular Orol dengizi ҳavzasida atrof-muxit axvolini barqarorlashtirish, suv va yer resurslarini boshkarish uslublarini takomillashti-rishga қaratilgan. Jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari raxbarlari tomonidan Orol dengizi ҳavzasasi muammolari bo'yicha Nukus (1995 y.), Olmaota (1997 y.), Ashxobod (1999 y.), Dushanbe (2002 y.) va boshqa deklaratsiyalar қabul қilindi. Xalqaro xamjamiyat bilan yaқin ҳamkorlik Orol dengizi ҳavzasida ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni

yaxshilash buyicha aniқ chora-tadbirlar dasturini ishlab chiқish va 5 davlat nomidan 1994 yil Parij-dagi z^chrashuvda taқdim etish imkonini berdi.

OKXJ ning muxim tuzilmalaridan biri Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo'jaligi komissiyasıdir (DMSXK). Suvni davlatlararo darajada boshkarish masalalarini xal қilish Z^chun ta'sis etilgan mazkur komissiya tomonidan daryolar suvlariдан mintaqaviy darajada foydalanish va daryolar қuyi oқimlariga ҳamda Orol dengiziga suv utkazishga doir қarorlar қabul қilinadi va ular Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha davlatlar *uchuy* majburiyidir. DMSXK va uning ijrochi organ-lari "Amudaryo" XSB va "Sirdaryo" XSBning mavjud maқomi, vazifalari va vakolatlari, davlatlararo suv resurslarini boshkarish bilan boғliқ muammolar mazkur 4-қismda kurib chiқilgan.

DMSXK yana bir muxim organi Mintaqaviy gidrologiya markazi (MGM) xisoblanadi. U Markaziy Osiyo mamlakatlarining gidrometeorologiya xizmatlarini birlashtiradi. MGM doira-sida suv resurslari monitoringining yagona tizimini olib borish va Orol dengizi ҳavzasida ekologik inқiroz oқibatlarini ka-maytirish uchun gidrometeorologiya ma'lumot-larini erkin almashish bo'yicha bitimlarga erishildi.

Mintaқaviy trening markazlari (DMSXK NAM, "Amudaryo" XSB, TIMI va boshkalar) suv resurslarini boshkarish saloxiyatini mustaxkamlashga mz^xim xissa қo'shamoқda. Ular xalқaro institutlar va donor mamlakatlar kumagida tashkil etilgan. Davriy nashrlar yo'lga қo'yilgan: DMSXK va OKXJ axborotnomalar, referativ sharxlar, ma'lumotnomalar, xуқуқiy masalalar buyicha ilmiy sharxlar tuplamlari. Shuningdek, seminarlar, simpozi-umlar, konferensiylar materiallari, xisobot xujjatlari va mintaqadagi faoliyat natija-larini aks ettiruvchi risolalar chop etilmoқda. Қarorlar қabul қiluvchi shaxslar -suv xo'jaligi raxbarlari va mutaxassislari-ning rivojlangan mamlakatlarga safarlari-ning uyushtirilishi ilfor tajribani o'rganishda katta aҳamiyatga ega.

1.3. Xalқaro ҳamkorlik va donorlik faoliyati

Bugun Markaziy Osiyo katta e'tibor қaratilayotgan mintaqä. U Orol inқirozi oқibatlarini bartaraф etishga oid vazifa-larni xal etish yo'llarini izlash z^chun sa'y-xarakatlarni muvofiqlashtirish, barқarorlik va xavfsizlikni taminlashga katta xissa қushayotgan xalқaro ҳamkorlik maydonidir.

Uzbekiston mustaqillikka erishgandan buyon yuzdan ortik mamlakat bilan diplomatik muno-sabatlar o'rnatdi va 150dan ortik xalқaro konvensiya va protokolni ratifikatsiya қildi. 1992 yildan beri respublika, Markaziy Osipyoning boshqa davlatlari kabi, Mustaqil Davlat-lar Xamdo'stligi (MDX) a'zosi xisoblanadi.

- "Davlat ekologik ekspertizasi to'frisidagi Nizomni tasdiqlash haқida" (№491, 2001.31.12)
- "Atrof muxitning davlat monitoringi tugrisidagi Nizomni tasdiqlash haқida" (№49, 2002.3.04)
- "Yer osti chuchuk suvlari ҳosil buladigan zonalarga respublika aҳamiyatiga ega bulgan aloxida muxofaza etiladigan tabiiy xududlar maқomini berish tugrisida" (№302. 2002.26.08)
- "Gidrometeorologiya xizmatini takomillashtirish tugrisida" (№183, 2004.14.04)
- "Uzbekiston Respublikasi xududlarini kadastr bo'yicha bo'lish ҳamda yer uchastkalari, binolar va inshootlarning kadastr tasdiqlashlarini shakllantirish tugrisidagi Nizomni tasdiqlash haқida" (№492, 2001.31.12)

Institutsional tub uzgarishlarni қullab-қuvvatlash, fermer xujaliklari uyushmalarini rivojlantirish, қishloқ xo'jalik maxsulotlari ishlab chiқaruvchilarining xukukiy va iқtisodiy mustaqilligini kengaytirish maқsadida Vazirlar Maxkamasasi 2002 yil 1 avgustda "2003-2007 yillar davrida Қoraқalpoғiston Respublikasida қishloқ xujaligi ishlab chiқarishi barқaror rivojlantirilishini ta'minlashga doir қo'shimcha chora-tadbirlar tufrisida"gi 276-қарорni қabul қildi.

Xukumat maxsus komissiyasi 2004 yilning noyabrida mavjud xukukiy tizimda cheklovlarning oldini olish maқsadida manfaatdor tomonlar bilan birgalikda SFULarni rivojlantirishga taallukli қuyidagi қarorlarni ishlab chiқdi va tasdiqladi:

- suvdan foydalanuvchilar uyushmasi bo'yicha maxsus қonun қabul kilish, tegishli қonunlar va қonun osti xujjatlariga zarur tuzatishlar kiritish tugrisida (bunda ayni paytda suvdan foydalanuvchilar maқomi va vazifalarining xukukiy asoslari yetarlicha ishlab chiқilmagani қayd etildi);

12Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar vakolatli boshkaruv organlari bilan kelishgan ҳolda zararli suvlar ta'siri, toshқin, suv bosish, қirfoқlar, ximoya tufonlari va boshqa inshootlarning buzilishidan ogox etish va bartaraf etish, shuningdek, yerlarning botқoklanishi, sho'rланishi, yemirilishi, jarliklar, kuchkilar, sel okimlari va boshqa ziyoni ҳolatlarga қarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlarni o'tkazishga majbur. Konunda suvdan maxsus foydalanish, suv ob'ektlarini ifloslantirish va ularga boshqa turdag'i zararli ta'sirlar uchun ҳaқ to'lash, suvni tejash texnologiyalari, suvni ximoya қilish va boshqa turdag'i faoliyat yuritishda solik, kredit va boshqa imtiyozlar iқtisodiy choralar sifatida ko'zda tutilgan.

- suforiladigan yerlarda suv resurslaridan oқilona foydalanishni rejalashtirish va boshkarishda suvdan foydalanuvchilar uyushmasi rolini kuchaytirish tugrisida;
- bir getkar yerga beriladigan suv miқdorini kamaytirish uchun eng samarali irrigatsiya texnologiyasidan foydalanish orkali suvdan foydalanuvchilar uyushmasini suv resurslaridan oқilona foydalanganlik uchun ragbatlantirish tugrisida;
- zamonaviy irrigatsiya texnologiyalarini joriy etish uchun maxsus dastur va fermer xujaliklarini molialashga oid masalalar ma'lumotnomasini ishlab chiқish tugrisida;
- suvdan foydalanuvchilar uyushmasiga fermerlar tomonidan foydalaniladigan suvni aniқ o'lhash va xisobga olish uchun suv xisoblagich priborlarini joriy etishda ko'maklashish tugrisida.

Kuyidagi masalalarga xam aloxida e'tibor berilmokda:

- xar bir fermerning uyushmani tuzishdagi ishtirokini kuchaytirish ("oxiriga yetkazish" usulida), fermerlarga tizimning ishlashi va uni boshkarishga doir қarorlar қabul қilishda ularning fikri inobatga olinishi xam bunga ta'sir kursata olishi kafolatini berish uchun barcha sharoitlarni xisobga olgan xolda suvdan foydalanuvchilar uyushmasini tashkil etishni davom ettirish;
- қishloқ va suv xujaligi vazirligida muayyan yordam kursatish byurosi yoki bulimini tashkil etish, xavzali birlashmalar raxbarlari suvdan foydalanuvchilar uyushmasini tashkil etishda ko'maklashishi va boshka masalalar.

Oliy Majlisning Agrar, suv xujaligi

3.3.2. Suv қonunchiligidagi muammolar

Yaқinda amalga oshirilgan kuzatuvlar taxlili tabiiy resurslardan foydalanish va muxofaza қilish tugrisidagi қonunlar samarasining talablar darajasidan pastligi, resurslarni tejash masalasi milliy strategiyalar bilan masalalari va ekologiya қ'omitasi davlat organlari va manfaatdor tomonlar bilan xamkorlikda belgilangan choralarни amalga oshirish uchun "Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari to'frisida"gi қonun, "Suv va suv munosabatlari to'frisida"gi yangi taxrirdagi қonun va boshqa қonunosti xujjatlarini tayyorlamokda.

Ichimlik suvi ta'minoti soxasida esa yaқinda xukumatning kuyidagi қarorları қabul қilindi:

- "Xalқaro moliyaviy institutlarning ichimlik suv ta'minoti tizimini takomillashtirishga jalb қilingan kreditlarini қaytarish uchun Қoraқalpofiston Respublikasi va Xorazm viloyati suv ta'minoti tashkilotlari mablaglarini jamlash tugrisidagi Nizomni tasdiqlash ҳақida" (№252, 2005)
- "Osiyo taraқкιyot banki ishtirokida "Guliston, Jizzax va Қarshi shaxarlarining suv ta'minoti tizimini takomillashtirish" loyixasini amalga oshirishning ayrim masalalari tugrisida" (№6, 2006)

"Energiyadan oқilona foydalanish to'frisida"gi қonun energetika resurslaridan foydalanish қoida va normalarini tartibga soladi. Ushbu қonundan ko'zlangan maқsad

milliy energetika resurslarini asrashni ta'minlaydigan umumiy xukukiy asoslarni shakllantirish, energiya va ishlab chikarish imkoniyatlaridan samarali foydalanishdan iborat. Maqsadli dasturlarni mablag bilan ta'minlash қonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilmokda. Energiyadan oqilona foydalanish borasida davlat siyosatini moliyaviy қo'llab-қuvvatlash uchun xukumat tomonidan byudjetdan tashkari tarmoqlararo energiya ta'minoti jamgarmasi tashkil etilmokda.

yeterlicha integratsiyalashmaganini kursatdi (55.56). Amaldagi қonun va aktlarning bajarilish mexanizmlari ijro organlari tomonidan muvofiqlashtirilmagan va ko'prok idoralar ta'sir doirasida saqlanib қolgan.

Ularda genetik resurslar, xavfsiz texnologiyalardan foydalanish, muvofiqlashtirish, xamkorlik, tarmoqlararo alokalarni mustaxkamlash va saloxiyatni yuksaltirish bilan boflik masalalar deyarli o'z aksini topmagan.

Amaldagi қonunchilikda raфbatlantirish mexanizmlari ҳamda suv resurslari va atrof-muxitga yetkaziladigan zarar uchun xukukiy javobgarlik ko'zda tutilmagan. Garchi suv oқimlarini ifloslaganlik uchun jarimalar tizimi amalga oshirilsa-da, iktisodiy mexanizmlar samarasiz ishlayotgani bois bunday tulovlarni yigish darajasi pastligicha қolmokda. "Suv va suvdan foydalanish to'frisida"gi қonun suv sifatini tekshirish xukukini bersa-da, unda suvdan foydalanishning tegishli standartlari va limitlariga rioya қilish talablari, suvdan foydalanuvchilarning sifatlari suvgaga ega bo'lish xukuklari belgilab berilmagan. Shuningdek, suvdan foydalanuvchilar tomonidan bevosita sugarish uchun olinadigan suv miqdori va sifati ҳamda sugarish konturi tashkarisiga chiқarib yuboriladigan ortiqcha suvni xisobga olish masalalari anik tartibga solinmagan. Foydalaniladigan yerlardan suv bosgan yerlarni, kishlok xujalik infratuzilmasi, jumladan, axoli yashash joylari chiқarilgani uchun kompensatsiya mexanizmi ko'rsatilmagan.

Suv va resurslarni tejash bo'yicha xukukiy normalarning yeterli darajada ishlab chikilmagani amaldagi suv қonunchiligi bajarilishiga monelik қilayotgan omillardan biri sanaladi. Vazirlar Maxkamasining 1993 yil 3 avgustda kabul қilingan "Uzbekiston Respublikasida suvdan cheklangan miqdorda foydalanish to'frisida"gi 385-қarori yangilanishi va tegishli қo'shimcha ҳamda o'zgartishlar kiritilishini taқozo қiladi.

Davlat birlashmalar va fuқarolarga suv resurslaridan foydalanish va ularni muxofaza қilishni nazorat қilish xukukini beradi. Biroқ "Suv va suvdan foydalanish tugrisida"gi қonun modsalarida birlashmalar va fukarolar bunday nazoratni amalga oshirishda ishtirok etishi shartligi ҳamda mumkinligini ko'zda tutuvchi қoidalar yo'қ. Suvdan foydalanish va tejash tugrisidagi me'yoriy-xukukiy xujjatlarda jamoat boshқaruvi va nazorati tugrisidagi ma'lumotlar yo'қ, ta'sirlar monitoringi va ularni baxolash masalalari yeterlicha e'tiborga olinmagan.

Umuman olganda, me'yoriy-xukukiy baza tabiiy resurslarni oqilona boshқarish va

foydalishga қаратилган, бироқ yondashuv va vositalar barқарор boshқарувни tashkil etish uchun unchalik moslashuvchan ҳамда mustaxkam emas. Mamlakatda ҳали suv-energetika resurslaridan foydalishga doir xalkaro xуқуқ, protsedura va me'yoriy xujjatlarni izchil ҳамда muvofиқ tarzda қo'llash buyicha umumiy amaliyat to'la shakllanganicha yo'қ. Ayni paytda mavjud қiyinchilik v a cheklowlarga қaramay, xalқaro xуқуққа қushilish va global kelishuvlar suvga doir munosabatlarni barcha darajada uygunlashtirish uchun ishonchli xуқуқиу asos buladi.

3.4. Fukarolik jamiyati va jamoatchilik ishtiroki 3.4.1. Fukarolik jamiyati

Tabiiy resurslardan oқılona foydalanish uchun mas'ul maxsus institutlar mamlakatning 362 tashkilotni o'z ichiga oluvchi ilmiy-tadқikot va loyixaviy saloxiyatini қamrab olgan. Ushbu tashkilotlarning muayyan қисми bevosita yoki bilvosita O'zbekistonda suv muammolarini xal қilish bilan shugullanadi. Bular - milliy strategiyalar, xarakat dasturlari, rejalar va texnik loyixalar, shuningdek, ekologiya ҳамда tabiatni muxofaza kilish soxasida ilmiy va amaliy ishlarni amalga oshirish bilan boғliқdir. Mazkur institutlar isloҳotlar va institutsional tub uzgarishlarni rivojlantirish, mutaxassislarni o'қитish, resurslarni tejashning ilgor texnologiya ҳамда uslublarini ishlab chiқish va joriy etish borasida katta xissa қо'shmoқda.

O'zbekistonda mustaqillikka erishilgach, 13 jamoat tashkiloti, 22 milliy va xalkaro xayriya jamgarmasi tashkil etildi. Ularning faoliyati axoli salomatligini yaxshilash va atrof-muxitni muxofaza қilish bo'yicha davlat

urlarini қo'llab-қунватlash, shuningdek, tadbirkorlik, ta'lim, madaniyat soxalarini rivojlantirish, jamiyatda ma'naviy қадriyatlarning axamiyatini oshirishga қaratilgan. "Ekosan" xalқaro ekologiya va salomatlik tashkiloti, Mexr-shafқat va salomatlik jamfarmasi, Orolni қutkarish xalқaro jamfarmasi, "Soflom avlod uchun" jamfarmasi, Xotin-қizlar қo'mitasi, Uzbekiston Tadbirkor ayollar uyushmasi kabi tuzilmalar jamoatchilikni ushbu jarayonga jalb қilishda alovida xissa қo'shib kelmoқda.

Bu borada ijtimoiy munosabatlarning barcha қatnashchilari urtasida o'zaro ҳамjixatlikni ta'minlaydigan nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) katta rol o'ynaydi. Ayni paytda atrof-muxitni muxofaza қilishda ishtirok etish xуқукiga ega barcha nodavlat notijorat tashkilotlar "Ekoforum" milliy dasturi bo'yicha birlashgan. 2004 yilda mamlakatda 49 shunday nodavlat notijorat tashkilot va tashabbus guruxlari faoliyat yuritgan edi. Ularning 37 tasi ekologiya masalalari, қolganlari esa suv muammolari bilan shugullanadi. "Ekoforum" strategiyasi қuyidagi yo'naliшlarni қamrab olgan:

- jamoatchilikni suvga oid muammolarni xal қilishga jalb etish;
- jamoatchilik ekologik ekspertizasi va monito ringi;
- NNTlarning jamiyatda barkaror rivojlanish goyalarini ilgari surishda ishtiroki;
- biologik va landshaft xilma xilligini saқlash;
- Ekologik ta'lim va tarbiya;
- ekologiya jurnalistikasi va axborot dasturlarini rivojlantirish.

2004 yilning iyunida Tabiatni muxofaza kilish davlat қumitasi va "Ekoforum'5 o'rtasida Uzaro anglashuv va xamkorlik tugrisida memoranudum imzolandi (79,89). "Ekoforum"ning қator dasturlarini amalga oshirishda ilk қадamlar қo'yildi. Chunonchi, uning мақсадли dasturlari doirasida қuyidagi ishlar amalga oshirilmoқda:

- Fargona vodiysi, Samarkand, Surxondaryo Sirdaryo va Zarafshon daryosi ҳavzasidagi suv ob'ektlarining tozaligini nazorat kilish mexanizmlarini rivojlantirish loyixasini ishlab chiқish;

- mamlakatning ekologiya va suv xujaligi tashkilotlarini "Markaziy Osiyoda suv taqchilligi muammosini bartaraf etishda jamoatchilikning ishtiroki" xalkaro anjumani ishiga jalb kilish (Toshkent, 2003 yil may);
- NNT milliy tarmogi va ekspertlarini tayyorlash, O'zbekistonning ekolog jurnalistlarini Markaziy Osiyo ekologiya jurnalistikasi festivaliga jalb қilish va boshqa tadbirlar.

Jamoatchilik tashkilotlari ekologik dunyokarashni shakllantirish maksadida barcha manfaatdor tomonlar ishtirokida suv va ekologiya muammolari bo'yicha teleko'rsatuvarlar, radioeshittirishlar, davra suxbatlari, baxs-munozaralar tashkil etilmoqda. "Suv resurslari", "Ekologik axborotnoma" jurnallari va boshqa davriy nashrlar chop etish yulga қuyilgan. Tabiatni muxofaza қilish davlat kumitasi, BMT Taraqqiyot dasturi, "Atrof-muxit" va turli nodavlat notijorat tashkilotlar saytlarida ekologiyaga oid axborotlar berib borilmoqda. Ommaviy axborot vositalarining deyarli xammasi turli ekologik kompaniyalar va anjumanlarda faol ishtirok etmoqda.

Nodavlat notijorat tashkilotlar va jamoat institutlari imkoniyatlarini rivojlantirishga ko'plab xalqaro xamda mintaqaviy tashkilotlar xam yordam bermoqda. Xalqaro tashkilotlarning (FAO, GEJ, OTB, JB, BMT TD) texnik ko'mak strategiyalari va dasturlari doirasida "Fermer - fermerga", "Fermerlarning dala maktabi" kabi kator o'kitish dasturlari tatbiq etildi. Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari tarmogini kengaytirish, suv xujaligi va iqtisodiyotning boshqa jabxalarida institutsional isloqotlarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratishda xalkaro rivojlanish agentliklari (USAID, JICA, KOICA va boshqalar) katta xissa қushmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlar va maxalliy xamjamiyat vakillari RIOD, CARNet tarmogi, CAWater-info portalı, Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xujaligi komissiyasining Ilmiy-axborot markazi, BMT Taraqqiyot dasturi va boshqalar

tomonidan muntazam tashkil etilayotgan seminarlar, konferensiylar va virtual munozaralarga jalb қilinmoqda.

Bundan tashkari MSMB xujjatlari va boshqa dasturiy xujjatlar taxlili fuqarolik jamiyatni imkoniyatlaridan xali yetarlicha foydalanilmayotganini ko'rsatadi. Zero, uning institutlari faolligi va tashabbuslari maxalliy xamjamiyatning suv resurslarini boshkarishda ishtirok etish uchun xal qiluvchi vazifa xisoblanadi. Shuningdek, xotin-қizlarning suv xujaligi tashkilotlari faoliyatidagi ishtiroki xam xali talablar darajasida emas. So'nggi paytda bu masala ancha kengayganiga қaramay, қishloq xotin-қizlarining suv resurslaridan foydalanish masalalari bo'yicha қarorlar қabul қilishdagi ishtiroki xali xam cheklanganki, bu barqaror rivojlanishga erishishda jidsiy muammo bulib қolmoqda. Xotin-қizlarni suvni boshkarish jarayoniga jalb kilish, buning uchun ularning oilasi, jamiyat va atrof-muxit oldida javobgarligini oshirish joylarda sanitariya xamda suv ta'minotini yaxshilashning muxim omillaridandir.

3.4.2. Jamoatchilikning suv yetishmasligini bartaraf etish borasidagi ishtiroki

Jamiyat suv muammolarini ҳал kilish va suv taқchilligini yumshatish uchun kat’iy choralar kurish zarurligini anglab yetmoқda. Suvdan foydalanish bo’yicha eskicha karashlar o’zgar moқda, tabiiy resurslarni boshkarishdagi қotib қolgan usullardan voz kechishning қulay va samarali yo’llari izlanmoқda. Bu jarayon tarmoқlarda jadal rivojlanayotgan tub o’zgarishlar sharoitida kechmoқdaki, bunda nafaқat қonunchilik darajasida, balki barkaror rivojlanish ҳамда ekologik xavfsizlikka erishish maқsadida yangi ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish, o’zaro ҳarakatlarni ishlab chiқishda maқbul yechimlarni topish muximdir.

Mamlakatning turli xududlarida o’tkazilgan kuplab tadқiqotlar қishloқ axolisi, jumladan xotin-қizlar shaxarliklarga қaraganda ko’prok ijtimoiy kapitalga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu ularning bir-biri bilan munosabati, xatti-ҳarakati va suv infratuzilmasini soz xolatda saқlash uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish yulida birlashishida namoyon bo’lmoқda [67,93]. Ular boshkaruv organlari bilan suv ta’mnoti tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun milliy va maxalliy darajada amaliy xamkorlik қilmoқda. Bundan tashқari қishloқ axolisi atrof-muxitni ximoya kilish, suvdan oқilonona foydalanish, suv sarfini xisoblash, suv uchun ҳақ to’lash, suv ta’mnoti tizimi ishida faol ishtirok etishga tayyor.

Suvning sugorish uchun yetishmasligi yoki sifatining pastligi uy-ro’zforda ҳам, boshkaruv organlarida ҳам suv yetishmasligining oldini olish uchun samarali yullarni izlab topishga undamoқda (3.2-rasm). Ya’ni, қo’shimcha suv manbalarini topish, suvni tejash va irrigatsiya ҳамda drenaj tarmogini yaxshilash choralar va boshқa faoliyat turlari shular jumlasidandir. Bularning barchasi mexnat, energiya, moddiy xarajat va ko’nikmalarni talab қiladi ҳамda ijtimoiy va ekologik tavakkalchilikni yuzaga keltiradi.


Suv kamroқ yillarda suv uchun bo’ladigan moja-rolar odsiy voқeaga aylangan. Bunday tortishuvlar gidrotexnik muammolar doirasida yuz beradi va ishtirokchilarning etnik mansubligi bilan boғлиқ emas. Kosonlik bir dexkonning aytishicha, “suv uchun bo’ladigan mojarolar azaldan mavjud”. Sugorish kanallarining oxirida joylashgan fermer xujaliklari suv yetkazib berishni nazorat kilish uchun xisoblash vositalarini o’rnatishga ҳarakat қilmoқda. Yuқori oқimda (yoki kanallarningyuқori қismida) joylashgan xujaliklarda esa suv o’lchagich asboblarni o’rnatishga unchalik moyillik yo’қ. Negaki, bu ortiқcha sarflanadigan suvni xisobga olish imkonini beradi va tabiiyki, ushbu xujaliklarda suv o’lchagich asboblar o’rnatilmagan. Ko’pgina xollarda muқobil suv manbalariga ega bulmagan dexkon va fermerlar kollektorlar yoki yer osti suv manbalaridan foydalanadi. Bu esa yerkarning sho’rlanishi, yemirilishiga, buning oқibatida ҳosilning barbod bo’lishi ҳамда boshқa iқtisodiy va ekologik zararlarning yuzaga kelishiga sabab bo’ladi.

Shunisi e’tiborliki, aynan keyingi yillarda yuz bergen suv taқchilligi va davlat tomonidan yetarlicha mablag ajratilmayotgani ilgari

shakllangan an'analarga қaytishga undadi. (Suvning қадр-қиммати kuchli seziladigan aynan mana shunday vaziyat odamlarni uz kuchiga tayanib, nima қila olishi mumkinligi ҳақida o'yashga undaydi). Axolining maxalliy ҳамjamiyat darajasida faolligini қayta tiklashning boshqa ijobiy yo'nalishlari ҳам mavjud (3.2-ramka).

Asosiy saboqlardan biri - yuz yillar avval suvdan foydalanish borasida orttirilgan tajribani қo'llashni taqozo etishi mumkin. Bu mintaqa axolisi tushunib yetadigan juda odsiy goyadan iborat: suvga rasman kim egalik қilishi, bu yil u kup yoki kam bo'lishi, uni dalaga yetkazib berish xarajatlari kishlok xujaligi ishlab chikaruvchilari yoxud davlat xisobidan қoplanishidan қat'i nazar ushbu zaminda asrlar davomida қo'llanib kelingan suvdan oddiy foydalanuvchilar darajasida mas'uliyatli, lekin umumiy қarorlar қabul қilish orqaligina mojarosiz oqilona foydalanish mumkin.

3.2-rasm. Қshplok va shaxar axolisini birlashib suv yetishmasligini oldini olish uchun



bir xil strategiyalarini topishi.

Kishlok

Shaxar

" Chizik ichidagi maydon xar bir faoliyat buyicha kushnilar bilan xamkorlik kilishni kursatadi

Manba: Juçon banki (2001). KNSKTlonižas.

3.2-ramka

Suvdan foydalanish muammolarini bartaraf etish strategiyalari: Қашқадар yo viloyatining Jeynov xujaligi.

Tarixiy ma'lumot. Jeynov қishlofi Қarshi shaxridan farbda 50 kilometr uzoқликda joylashgan. Arabchada "jina" "biz keldik" ma'nosini anglatadi. Ushbu xo'jalikning tashkil etilishi tarixi arablarning Markaziy Osiyoga kuchib kelish davriga borib taқaladi (758-780 yillar). Shu davrdan boshlab va o'tgan yuz yillik boshlangunga қadar, arablar, o'zbeklar va Jeynov қishloғida yashovchi boshқa xalқ vakillari chorvachilik va dexkonchilik bilan shufullangan. 1970 yildan Mirishkor kanali ishga tushirilgach, Jeynovda suv ta'minoti yaxshilandı, suv ko'paydi, yer unumdoorligi oshib, yuқori ҳosil olina boshlandı. Biroq sho'ro davridagi "oқ oltinni oltin қo'llar yaratadi" degan shior va o'tish davri muammolari xujalikda yerlarning yemirilishi, ҳosildorlik va daromadning pasayishi, xujalikning faoliyat yuritishi uchun mablaғ yetishmasligiga olib keldi.

Olingan saboklao: Ushbu ҳududda shakllangan suvdan foydalanish tartiblari ҳamkorlikning kup yillik shakllarini tanlash maxsuli xisoblanadi. Negaki, bu ҳududda odamlar xar doim suv taқchilligi sharoitida yashab kelgan, shakllangan қoidalarga amal қilgan va bugungi kunda ҳam barcha, ular tub axoli, uzbek yoki arab bulishidan қat'i nazar mazkur tartiblarga rioya қiladi. Jeynovda norasmiy ҳamkorlikning yorқin misollari ko'p - zovurlarni ҳashar yo'li bilan tozalash, dexkonlar o'rtasida "avandoz" қo'llash to'ғrisida shartnama tuzish, kanallarni ҳamkorlikda қo'riқlash, қo'shnisining suvini o'ғirlaydigan kishiga jamoatchilikning tanbez berishi. (Jaxon bankining KNSKT loyixasi, 2001).

4-bob. DAVLATLARARO SUV RESURSLARINI BOSHKARISH MUAMMOLARI

4.1. Mavjud taқom va boshқaruвning xududiy tuzilmasi

Amudaryo va Sirdaryo ҳavzalarining mavjud suv xujaligi majmui Markaziy Osiyo mintakasini iқtisodiy rivojlantirish yo'llarini muayyan darajada belgilab beradi. Suv xujaligi majmui tabiiy va xujalik ob'-yektlari majmuidan iborat. Uning tarkibiga suv resurslarining ҳosil bo'lishi, transporti-rovkasi, oқimlar o'zgarishi, suvdan foydala-

4.1.1. Rivojlanish tarixi nuvchilarining suv olishi va ularga suv yetkazib berish, elektr energiyasi ishlab chikarish, suv resurslari va ularning sifatini nazorat kilish ҳamda xisobga olishni ta'minlaydigan inshootlar kiradi. Amudaryo ҳavzasidagi barcha davlatlararo (transchegara) suv resurslari, jumladan ustki v a қaytadigan suvlar boshқaruвga olingan.

Orol dengizi ҳavzasida suv resurslarini oқilona boshkarish va foydalanish muammosi o'tgan asrning 70-80 yillarida paydo bo'lgan (4.1 -ramka). Amudaryo va Sirdaryo ҳavzalarida yagona avtomatlashtirilgan boshkaruv tizimini tashkil etish keyinchalik suvni boshkarish va "Amudaryo", "Sirdaryo" va "Zerdolvodxoz" ҳavza suv xujaliklari birlashmalariga taқsimlash borasidagi aniқ vazifalarni takomillashtirish imkonini berdi. Bu esa yaxshi samara va foyda berdi. Birinchidan, suv resurslaridan foydalanishni xisobga

olish va nazorat қилишning odsiy tartibi joriy etil-di. Ikkinchidan, daryoda ҳамда respublikala-raro kanallarda ҳисобга олинмаган suv isrof-garchiliklari kamaydi. Boshқарув tizimining juda қулагашуви barcha tomonlarga ma’қул keldi va mintaka davlatlari o’rtasidagi muno-sabatlarda o’zaro tushunish xamda ishonishga erishishni ta’minladi. Xar bir respublika-ning suv ulushi SSSR Gosplani tomonidan bosh rejalar asosida tasdiqlanadigan suvni taқsimlash kvotalariga muvofiq belgilanar edi [84, 85]. Suvni taқsimlash samaradorligini baxolash uchun *хавзада жами сув тақчилигига иштимои мудори* va *халс хужалигига сув yetkazib ber-maslikdan kurilgan eng oz zarar* mezon қилиб oлинган (26,86). Xavza suv xujaligi birlashma-si gidrologik prognozlarga қараб, xar bir mamlakat uchun suv limitini 10 foizgacha oshirish yoki kamaytirishi mumkin edi. Biroq bu ҳолат xar bir mamlakatda suv sifati va suvdan foydalanish talablariga javob bermasdi. Amaliyotda Orol dengizi va Orolbuyiga suv yetkazib berish "boriga - baraka" tamoyiliga asoslangan.

4.1-ramka

Orol dengizi ҳавzasida suv xujaligi majmuining avtomatlashtirilgan boshқарув тизими tarixi

KPSS Markaziy қо’mitasi va SSSR Vazirlar kengashining 1986 yil 17 martdagи "Қоракалпofiston ASSRni iқтisodiy va ijtimoiy rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to’ғrisida"gi 340-қарори va boshqa xujjatlar asosida SSSR Suv xujaligi vazirligi Orol dengizi ҳавzasida suv xujaligi kompleksining yagona avtomatlashtirilgan boshқaruv tizimini tashkil etish tugrisidagi texnik loyixani ishlab chiқishi tashabbusini il gari surdi.

Uni tashkil etishda yirik suv xujaligi komplekslari avtomatlashtirilgan boshқaruv tizimining jaxon tajribasidan andaza sifatida foydalanildi: (i) Kaliforniyada (AKSh) suv ta’minotini va Sogami daryosi (Yaponiya) suv resurslarini boshkarishning markazlashtirilgan tizimi; (ii) Provansda (Fransiya) teleboshқaruvning nomarkazlashtirilgan tizimi; (iii) Saratov suv xujaligi kompleksining avtomatlashtirilgan boshқaruv tizimi (SSSR) va boshқalar.

Amudaryo va Sirdaryo ҳавзалари suv xujaligi majmui avtomatlashtirilgan boshқaruv tizimining asosiy maқsadi suv iste’molchilarini va foydalanuvchilar talablari ҳисобга oлинган ҳolda ҳамда xalқ xujaligi samaradorligiga erishish uchun ekologik me’yorlarga rioya қilish orқali suv resurslarini miқdori va vaqt bo’yicha қулагашуви taқsimlash orқali barcha ҳududlarni suv bilan oқilonan ta’minlashdan iborat edi. Tizim daryolar deltasiga sanitariya suvlarini қuyishni ta’minlashi va bunda yuvish va vegetatsiya davrida suforish ishlarining to’xtashi ҳамда gidroenergetika қurilmalari ishlashining buzilishiga yul қуymasligi lozim edi. Boshқaruvning asosiy mezoni belgilangan parametrlardan imkon

4.1.2. Boshқaruvning mintakaviy tuzilmasi

1-bobda қауд қарбада etilganidek, mustaқilllikka eri-shilgach, Markaziy Osiyodagi beshta davlat raxbarlari tomonidan Orol dengizi ҳавzasida davlatlararo suv resurslarini boshkarishning mintaқaviy tuzilmasi takomillashtirildi ҳамда rivojlantirildi.

Markaziy Osiyo davlatlarining muayyan maқsad yulida kelishilgan xatti-ҳarakatlarining birinchi bosқichida 1992 yili (Olmaota shaxri) Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xujaligi komissiyasi (DMSXK) va uning ikki-ta organi - "Amudaryo" va "Sirdaryo" ҳавза suv xujaligi birlashmalari tashkil etildi. Beshta Markaziy Osiyo davlatlari raxbarlarining Kizil o’rdadagi uchrashuvi (1993 yil 26 mart) boshқaruvning tashkiliy-xиқуқиу тузilmasini tashkil etishga asos soldi. Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xujaligi komissiyasi sobiқ SSSR Suv xujaligi vazirligidan ҳар ikki ҳавза suv resurslarini boshқarishni bevosita қабул қилиб oldi. Ҳавза suv xujaligi birlashmasining nizomi tasdiқlandi, Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xujaligi komissiyasi tugrisida nizom va boshқa muxim xujjatlar ishlab chiқilib, tasdiқlandi.

Teng asosda Orol dengizi bo'yicha davlatlararo kengash (ODDK) va Muntazam faoliyat kursatadigan ijro қо'mitasini (IK) tashkil etish tugrisida қабул қilingan қарор ҳамда bosh rejalarda e'tiborga olingan "mavjud suvdan foydalanish" bo'yicha suvni taқsimlash prinsiplarini tasdiқlash Kizil o’rda uchrashu-vining asosiy natijasi bo'ldi. Bundan tashқари Orol dengizi muammolari buyicha davlatlararo kengash xuzurida Barkaror rivojlanish buyicha davlatlararo komissiya (BRDK) va Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xujaligi komissiyasi (DMSXK) tashkil etildi, "Orolni қутқарish xalkaro jamgarmasi tugrisida" nizom қабул қilindi. Toshkentda beshta davlat raxbarlari ishtirokida o'tkazilgan forumda (1993 yil 13 iyul) o'z fao-liyatini Ijro kumitasi va davlatlararo ko-missiyalar (BRDK, DMSXK) orқали amalga oshi-radigan Davlat raxbarlarining Orol dengizi ҳavzasini muammolari buyicha davlatlararo ken-gashi tugrisidagi nizomlar tasdiқlandi.

Markaziy Osiyo davlatlari raxbarlarining 1994 yil yanvarda Nukus shaxrida bo'lib o'tgan uchrashuvida Jaxon bankining Orol dengizi ҳavzasini bo'yicha dasturi (ODXD) қabul қilindi.

Dasturning birinchi bosқichiga (ODXD-1) Orol dengizi ҳavzasida atrof-muxitni muxofaza қilish soқasida dasturlar majmuini amalga oshirish vazifasi kiritildi, jumladan: (i) Orolbo'iida suv resurslari va ulardan foydalanish monitoringining mintaқaviy tizimini tashkil etish; (ii) suv sifatini yaxshilash tartiblarini ishlab chiқish va suvga zarar yet-kazishning barcha turlarini cheklash; (iii) "Toza suv" va "Salomatlik" davlatlararo dasturlarini amalga oshirish; (iv) oқimlar xosil b o ' l a d i g a n x u d u d l a r d a a x v o l n i soflomlashtirishga doir tadқiqotlar o'tkazish va chora-tadbirlarni amalga oshirish; (v) "Sirdaryo" va "Amudaryo" suv xujaligi birlash-malarini texnik vositalar bilan jixozlash.

Orol dengizi ҳavzasini dasturining mintaқani 2010 yilgacha rivojlantirishning ustuvor yunalishlarini belgilab bergen ikkinchi bosқichi davlat raxbarlari tomonidan 2003 yilning avgustida Dushanbeda utkazilgan Xalқaro suv forumida ma'қullandi. ODXD-2ning asosiy faoliyat yo'nalishlari қuyidagilarni o'z ichiga olgan:

- Orol dengizi xavzasida suv resurslarini birgalikda bonu arinting kelishilgan mexanizmlarini ishlab chuyish; suv xujaligi ob'ekglarini sayta tiklash va suv-yer resurslaridan foydalanishni yaxshilash;
- atrof-muxit monitoringi tizimini takomillashtirish va Tabiiy ofatlarga s arshi kurash dasturlarini amalga oshirish; davlatlararo tashkilotlarning moddiy-teknika va xutsutsiy bazasini mustuňkamlash;
- mintats a ijtimoiy muammolarini xal silish va markaziy Osiyo mamlakatlari itstisodiyoti tarmotslarida suvdan otsilona foydalanish bo'yicha loyuçalar majmuini ishlab chitsish; otsimlar xosil bo'ladigan xududlar tabiatini muxofaza silish tad-birlari, shu jumladan uqli punktlari va tabiiy ekotizimlarni sanitariya-ekologik jüyatdan sozломлаштиришга oid dastur-larni amalga oshirish va boshalar;
- Orol dengizi xavzasida barsaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chitsish;

- cho'llanishga karshi kurashish bo'yicha mintatsaviy xarakat dasturlarini amalga onshrishda ko'makdashish;
- Amudaryo va Sirdaryo etaklarida suv-bots ots yerlarini rivojlantirish; minerallashgan kollektor-drenaj suvlaridan foydalanishni otsilona tashkil silish.

ODXDning tarkibiy қисми xisoblangan Orol dengizini қутқарish xalkaro jamfarmasi ushbu dasturni amalg a oshirishni muvofiqlashtirish, jaxon ҳамjamiyati e'ti-borini Orol dengizi suv satxining pasayishi sababli yuzaga kelgan ekologik falokatga jalb kilish va axvol ogir xudud sifatida belgilangan қирғоқ bo'yidagi yerlar muammolarini xal qilish maқsadida mablag sarflash uchun bosh tashkilot sifatida ta'sis etildi.

Orol dengizini қутқarish xalkaro jamfarmasi dastlabki paytlarda xalkaro ҳамjamiyatning (YeI-Tasis, BMTTD, Jaxon banki va boshqalar) bevosita қisman ko'rsatgan ko'magida nisbatan samarali ishlagan bulsa, 1999 yil o'rtalaridan boshlab uning mintaқaviy darajadagi faoliyati ancha susaydi, xalkaro moliyaviy yordam ҳам kamaydi. Biroq Markaziy Osiyo davlatlari raxbarlari Orol dengizini қутқarish xalkaro jamgarmasini va uning Ijro қo'mitasini қayta tashkil etish ҳамда tiklash choralarini kurdi. Shundan so'ng mazkur tashkilotlar Orol dengizi xavzasi dasturi loyixalarini amalga oshirish ishlarini davom ettirdi (4.1-rayem).

Jamgarmaning yangi tarkibiga Barkaror rivojlanish bo'yicha komissiya, Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xujaligi komissiyasi va ularning bulimlari kiritildi. Ushbu sxe-maga muvofiq besh davlat bosh vazirlarining o'rinnbosarlari Orolni қутқarish xalkaro jamfarmasi boshkaruvi a'zolari xisoblanadi. Orolni қутқarish xalkaro jamfarmasi Ijro қumitasini doimiy rais boshkaradi.

Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xujaligi komissiyasi - davlatlararo suv resurslarini boshkarish, suvni taksimlash, suv



Хавза сув xujaligi birlashmalarining mintaqaviy boshqarmalari

monitoringi, suv resurslari bilan boflik tadbirlarni davlatlar darajasida қо'llab-қuvvatlash uchun mas'ul maslaxat organidir. Uning faoliyati besh a'zo davlat tomonidan kelishilgan қарорлarni қабул қилиш, karama-қарshiliklar extimolini kamaytirishga yordam beradi. Barkaror rivojlanish buyicha komissiya esa barkaror rivojlanishga erishishga karatilgan tabiatni muxofaza қилиш siyosati-ni muvofiqlashtiradi, tabiatdan barkaror foydalanish, atrof-muxitni muxofaza қилиш buyicha belgilangan vazifalarni bajarish uchun milliy strategiya xamda dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas'ul. Il-miy-axborot markazlari tegishli tuzilmalarga ilmiy-axborot, taxliliy va metrologik masalalarda yordam beradi, barcha manfaatdor to-monlar imkoniyatini va xabardorligini oshirish, ular o'rtaida axborot almashishga kumaklashadi.

Orolni қutkarish xalkaro jamgarmasining yangi tuzilmasini shakllantirish tasarrufi-dagi tashkilotlar yuridik shaxslar xisoblanishi, xalqaro tashkilotlar maқomiga ega bo'l shida ijobiy rol o'ynaydi. Bu Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xujaligi komissiyasi va uning ҳavzaning suv resurslarini boshkarishga javob beradigan ijro or-ganlariga xam to'lik taalluқlidir. O'tkazilgan tub uzgarishlarni Davlatlararo muvofiq-lashtiruvchi suv xujaligi komissiyasi va uning tashkilotlari tashkiliy-xuқukiy baza-sini mustaxkamlash xamda takomillashtirish borasidagi oldinga siljish, deb baxolash mumkin.

4.1.3. Xavza suv xujaligi birlashmalari makomi va infratuzilmasi

Orol dengizi ҳavzasining mulk xuқuk'i va in-fratuzilmasini boshkarish milliy xukumatlar xamda ҳavza suv xujaliklari birlashmalari o'rtaida taқsimlangan. Mintakada Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xujaligi komissiyasi raxbarligida suvni davlatlararo taksimlashni limitlashni amalga oshiradigan "Amudaryo" va "Sirdaryo" ҳavza suv xujaligi birlashmalari asosiy tuzilmalar xisoblanadi. Uning mintaqaviy infratuzilmasi beshta davlat tomonidan gidrotexnik inshootlar, jumladan daryodan suv oladigan asosiy inshootlar, inshootli gidrouzellar, davlatlararo kanallar, gidropostlar va boshka suv fondlaridan vaktingchalik foydalanishga berilishi orkali tashkil etilgan. Kolgan barcha infratuzilma-lar, jumladan, xujaliklar darajasigacha milliy maқomga ega.

Ҳavza suv xujaliklari birlashmasi suv olish inshootlari, gidrouzellar va davlatlararo ka-nallardan foydalanishni xududiy boshkarish xuқukiga ega (4.2 va 4.3-rasmlar). Birlashma uz faoliyatida Ҳavza suv xujaliklari birlashmasi Nizomi, Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xujaligi komissiyasiga a'zo davlatlar-

Komissiya amaldagi қonunchiligi, қarorlari, shuningdek, bitimlar, protokollar xamda boshqa me'yoriy xujjalarga tayanib ish kuradi.

Suv xo'jaligi majmuini boshkarish borasidagi қiyinchiliklar boshkaruv ob'ektlari Mar-kaziy Osiyoning beshta suveren davlatining be-poyon xududlarida joylashgani va bir-biridan olisligi bilan boflik (4-ilova). Suv xujaligi majmui boshkaruv ob'ekti sifatida қuyidagi xususiyatlarga ega:


- suv xujaligi majmui axfordiga oid katta xajmdagi rang-barang axborotlar;
 - boshkaruv organlari va axborot manbalari-ning ko'pligi xamda keng xududda joylashgani;
 - hidrologik axborotlarning mavxumlik xu-susiyatlari;
 - suv xujaligi majmui ishtirokchilarining boshkaruvga oid talablarining zidligi;
 - suv resurslaridan foydalanish bo'yicha yagona iqtisodiy mezonlarning mavjud emasligi.
- "Amudaryo" va "Sirdaryo" xavza suv xujaligi birlashmalari o'z faoliyatida uchta asosiy ta-moyilga amal қiladi: (i) suv resurslarini suv olishning belgilangan limitlariga muvofik tufri taqsimlash; (ii) xar қanday vaziyatda ish-tirokchilar va suvdan foydalanuvchilar o'rtasida ҳaққoniylit xamda do'stona munosa-batlarni mustaxkamlash prinsipiga amal қilish; (iii) suv - mintaqada barcha manfaatdor tomonlar va davlatlar sa'y-xarakatini bir-lashtiruvchi barqarorlik omili.

Biroq suvni davlatlararo taqsimlashning ijro organi xisoblangan Xavza suv xujaliklari birlashmasining imkoniyati қuyidagi sabab-larga ko'ra cheklangan:

- davlatlararo aҳamiyatga ega suv olish in-shootlarining bir kismi, shuningdek, suv omborlariga ega muxim hidroenergetika majmualari milliy organlar boshkaruvida;
- Xavza suv xujaligi birlashmasi yer osti suvlari v a қaytadigan oқova suvlar olish miқdori, jadvali, shuningdek, suv resurslari sifatini nazorat қilmaydi;
- daryolarning asosiy қo'ndoқlarida uskunalar va suv olish inshootlari eskirgan;

- Xavza suv xujaligi birlashmasi va milliy hidrometeorologiya xizmatlarining uzaro xamjixatligini muvofiқlashtirish talab-lar darajasida emas;
- daryolar xavzalarini boshkarish va ulardan foydalanishning anik қoidalari yuk; davlatlararo aҳamiyatga ega daryolarning қuriqlanadigan xududlari belgilanmagan va ҳokazolar.

Mavjud cheklovlar va o'zgarishlar sharoitida Suv xujaligi majmuini boshkarish borasidagi kiyinchiliklar Xavza suv xujaligi birlashmalari roli va vakolatini kuchaytirish, toshkinlar, қurfoқchilik va boshka favқulodda vaziyatlarda zarar xamda xavflarni kamaytir-gan xolda, Suv xujaligi majmuidan ishonchli foydalanish va boshkarishni ta'minlash uchun mazkur tizimning imkoniyatlarini oshirishni talab қiladi.



4.1.4. Orolbo’iidagi vaziyatni barkarorlashtirishga oid ҳамкорлиқсаги faoliyat

Davlatlar tomonidan Orol dengizi deltasi va қurib қ олган tubida izdan chiққан tabiiy ekotizimlarni қayta tiklash borasida kuriłgan chora-tadbirlar mintaқадagi suv resurslarini boshkarish va foydalanishga oid o’zaro kelishilgan say-xarakatlar, birgalikdagи tashab-buslarni amalga oshirish uchun ҳамкорlikdagi imkoniyatlarni o’zida namoyish etdi.

Markaziy Osiyoning beshta davlati Orolbo’yini mustakil suvdan foydalanuvchi sifatida tan oladi. Orolbuyining suvgaga bo’lgan extiyoji barcha davlatlar extiyojlari singari xisobga olinadi. Shu bois bu extiyoj dare oқimining yillik o’zgarishi xisobga olingan xolda Orolbuyini қутқарish bo'yicha davlatlararo konsepsiya asosida belgilanishi kerak. Ayni paytda barcha davlatlar deltada suv sifatini, bioxilma-xillik va biounumdonlikni saқlashga oid talablarni muvofiqlashtirish muximligini e’tirof etadi.

Barcha davlatlar Orol dengizini kelajakda avvalgi darajada қayta tiklash oson ish emas-ligini tan olgan (4.2-ramka).

Jaxon banki va boshqa tashkilotlarning fik-richa, dengizni 25 yildan so'ng қayta tiklash uchun xar yili 75 milliard m³ suv talab etila-di (Sirdaryo va Amudaryoning jami yillik oқimining yarmidan kupi). Buli amalga oshi-rishning iloji yo'қ. Negaki, buning uchun Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi ko'plab sugarish tizimlarini yopishga to'ғri keladi. Orol dengizi suv satxining kamayishiga sabab bo'ladigan xalokatli ta'sirlarni pasaytirish uchun Orol dengizi xavzasi dasturiga keng ko'lamli ishlar va tub uzgarishlarni amalga oshirish tavsiya etildi.

4.2-ramka

Orolbo'yini қutkarish bo'yicha davlatlararo konsepsiya

1994 yilda Markaziy Osiyo davlatlari raxbarlari tomonidan қabul қilingan davlatlararo konsepsiyada ҳozirgi sharoitda Orol dengizini қayta tiklash imkoniyati yo'қligi va Orol dengizini emas, balki Orolbo'yini қayta tiklash muxim vazifa ekani e'tirof etilgan. Konsepsianing IV-bo'limida "...Orolbo'yida izdan chiқkan tabiiy rivojlanishni қayta tiklash barқarorligini ta'minlaydigan faol boshkariladigan ҳududiy ekotizimni tashkil etish zarurligi" қayd etilgan. Dengiz deltasasi va қurib қolgan tubida sun'iy ekotizimlarni yaratish ishlari Orolbo'yida tabiatni muxofaza қilish tadbirlari nuқtai nazaridan ustuvor vazifa xisoblanadi va қuyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- *Amudaryoning қurib қolgan tubida boshkariladigan suv ҳavzalari tizimini tashkil etish va Kichik dengizning bir қисmini Sirdaryo uchun boshkarish;*
- *dengizning қurib қolgan tubida polder tizim-larni tashkil etish;*
- *kuchma қumlarni mustaҳkamlash bo'yicha fitomelio-rativ ishlarni o'tkazish;*
- *kollektor-drenaj suvlarini dengiz akvato-riyasiga қumlar tarқaladigan ҳududlar orқali oқizish.*

Bundan tashқari Orol dengizi akvatoriyasining tarkibida tuz ko'p bo'lgan ҳudud, uning tuz va suv mutanosibligi proqnozi, suv satxi, shuningdek, қирғоқ bo'yidagi tumanlar zararlanishining oldini olish choralari belgilanishi lozim.

Orolni қutkarish xalkaro jamfarmasi va mintaka davlatlari sa'y-ҳarakatlari bilan қирғоқbo'yi tumanlari, chunonchi, Mo'ynoқ va Orol tumanlarida ijtimoiy-iqtisodiy axvolni yaxshilash, soflikni saқlash ҳamda ichimlik suv ta'minotini rivojlantirishga doir tadbirlar utkazilmoqueда. Bu ishlarning bir қismi turli donor tashkilotlar, birinchi navbatda Jaxon banki kumagida mintaka davlatlari mablaғlari xisobidan amalga oshiril-di. Uzbekiston xukumati GEJ yordamida Sudo-che ko'lining suv-botқoқlik yerlarini қayta tiklash loyixasini amalga oshirdi (5-bobga қarang). Bundan tashқari davlat mablaglari evaziga maxalliy suv ҳavzalarini tashkil etish va Amudaryo deltasida suvdan foydalanish tizimini tartibga solish buyicha gidrotexnik inshootlarni barpo қilish loyixalari ishlab chiқilib, ijrosi ta'minlanmoқda. Ger-maniyaning GTZ agentligi dengizning қurib қolgan

tubida ixota o'rmonlari mintaқasini tashkil etish ishla-riga katta xissa қо'shdi va қushmoқda.

Shubxasiz, bu ishlarning barchasi Orol fojiasi oқibatida ko'rilgan zararga nisbatan kam. Ayrim mo'ynoқliklarning fikricha[^], *ularga Amudaryo orkali keladigan suv baribir balу-chilikni sayta tiklash uchun* yetmaydi . Ayni paytda, Uzbekiston va Қозоғiston bevosita manfaatdor tomonlar sifatida kelajakda tegishli ximoya ishlarini amalga oshirish borasidagi ustuvor yo'nalishlar xamda imkoniyat-larni aniқlashga xarakat қilmoқda.

Orolbo'yining yaқin kelajakdagи suvgaga bo'lган extiyoji yiliga 8 km³ va Amudaryo xamda Sirdaryo ҳavzalari uchun yiliga 5 km³ deb taxmin қilinmoқda. Uzoқ kelajakda esa (2025 yil) bu oқim kamida yiliga 11 km³ va 8 km³ga kupayishi lozim.

"Amudaryo" ҳavza suv xujaligi birlashmasi mu-taxassislari Orolbo'yida suv ekotizim lari-ning ekologik barkarorligini ta'minlash uchun xukumatlararo shartnomalarda sersuvlik darajasi turlicha bo'lган yillarda dare del-talariga suv қuyishning eng ma'kul ulushi xamda tartibini ko'zda tutishni tavsiya қildi. Bundan ko'zlangan maқsad suvning keskin taқchilligi yuzaga kelgan yillarda baliklar, shuningdek, suv flora va faunasining boshka turlarini saқlab қolish uchun suvning miқdorini kafolatlashdan iborat [96]. Orol dengizi va Orolbuyi mintakasida vaziyatni yaxshilash bo'yicha muxim strategik karirlarni ishlab chiқish uchun қuyidagilar tavsiya etildi:

- Amudaryo deltasida manzara xilma-xilligi va tabiiy ekotizimlarning ekologik barқarorligini қayta tiklash maқsadida janubiy Orolbo'yida 2 million gektardan ortiq maydonni suv bostirish sxemasi xamda TIA ishlab chiқish;
- Orol dengizining suv ҳavzalaridan biri-ni (xususan, chuқur Farbiy suv ҳavzasini) biologik faol ob'ekt sifatida saқlab қolish imkoniyatini e'tiborga olgan xolda, uning kelajagiga oid tadқiqot-larni tashkil etish. Ayni paytda kelgusidagi xavflar va o'ta xavfli ҳodisa-larning oldini olish uchun dengizning қ oлган қismi kelajagini belgilash.

Shunday қilib, Amudaryo deltasini қayta tiklash bo'yicha xar xil yo'nalishdagi maқsadli cho-ra-tadbirlarni amalga oshirish davomida

Orol dengizi ҳavzasasi uchun katta ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy axamiyatga ega davlatlararo darajadagi yirik delta majmui bunyod etiladi. Ushbu kompleksning ishslash samadarligi va mustaxkamligini oshirish uchun қat'iy institutsional xamda me'yoriy-xuқukiy bazani shakllantirish zarur.

4.2. Davlatlararo suv resurslarini boshkarishga doir asosiy muammolar

Avvalgi boblarda қayd etilganidek, Uzbekiston Respublikasi ҳам, daryolarning o'rta va қuyi oқimlarida joylashgan boshқа davlatlar singari Orol fojiasi oқibatlari bilan bog-lik ekologik xamda ijtimoiy-iqtisodiy muam-molardan tashқari atrof-muxitning tanazzulga uchrashi va keskin suv taқchilligidan aziyat chekmovda. Uzbekistonning suvgaga bulgan

umumiyy exтиyоji davlatlararo Amudaryo va Sirdaryo resurslari xisobidan deyarli to'лиқ (82%) қолланади. Fargona vodiysi, Amudaryo va Sirdaryoning o'rta оқими ҳамда etagida joylashgan ахоли uchun ushbu daryolar оқимidan boshқа түкобил suv manbasi ўқ. Chunki sifati қониқарсиз yer osti suvlarining unchalik kup bulmagan resurslari mamlakatning 26 milli-onlik ахолиси exтиyоjini қondira olmaydi (2-b o b). Suv taқchilligi mamlakat iқтисодиyyotining rivojlanishiga monelik қилиб tурган asosiy omillardandir. Bu, ayniқsa, Amudaryo etaklari va suv bexad yetish-maydigan xududlarda juda xam sezilarli.

4.2.1 Suvga oid shartnomalar va resurslardan birgalikda foydalanish muammolari

Markaziy Osiyo davlatlari raxbarlari tomonidan 1992 yil fevralda imzolangan "Халқaro manbalar suv resurslarini birgalikda boshkarish, foydalanish va muxofaza kilish soxasidagi ҳамкорлик to'ғrisida"gi xukumatlararo shartnoma bugungi kunda Orol dengizi xavzasini suv iste'molchilari o'rtasida suvni birgalikda boshkarish ҳамда taқsimlashning xуқукий asosi bo'lib xizmat қilmоқда. Bundan tashқари keyingi o'n yilda Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan suvni taқsimlash bo'yicha avval kelishilgan sxemalar va ўқорода қайд etilgan shartnoma asosida daryolar xavzalariga oid қатор ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlar ҳамда xujjatlar қabul қilindi (1-ilova). Shu bilan birga, xalkaro suv xуқуқining asosiy prinsipi, ya'ni "*katta zarar yetkazmaslik majburiyat*"ta mintaka davlatlari, ayniқsa, ўқори оқимda joylashgan mamlakatlar xали ҳам amal қilmayapti. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida xanuzgacha davlatlararo suv resurslarini aniқlashning zarur atama va tushunchala-ri kelishib olinmagan.

Tuzilgan suv shartnomalarini amalda қullah tajribasi mavjud ekologik, iқtisodiy va ijtimoiy muammolarni ҳал etishda mazkur xujjatlarning samaradorligi pastligini kursatmoқda. Ushbu shartnomalarni imzolagan tomonlar uz zimmasiga olgan majburiyatlarni amalga oshirish mexanizmlarining zaifligi, ayrim xollarda esa nomakbulligi sababli xar doim ҳам tula bajarmayati, ularning ijrosi nazorat қilinmagan. Baxslarni ҳал etish va shartnomalarga amal қilishni ta'minlaydigan mexanizmlar ўқ.

Shuni ta'kidlash joizki, ikki tomonlama yillik shartnomalarni amalga oshirish jarayoni-da va energetikaga oid masalalarni ҳал etishda yuzaga keladigan muammolar iқtisodiy tu-zilmalarning bir-biridan keskin fark қilishi, shuningdek, o'tish davri cheklov ҳамда to'siklari bilan boғлиқ. Bozor iқtisodiyoti shartlari ҳали barcha mamlakat va tarmoқlarda ҳам mavjud emas. Keyingi yillardagi siyosiy o'zgarishlar (vizalar, bojlarning joriy eti-lishi, chegara postlarining tashkil etilishi, bojxona xizmatlari talablarining kuchayti-rilishi va ҳоказolar) ҳам suv munosabatlarini mustaxkamlash borasida ҳамкорlikdagи faoli-yatgato'skinlik қilmоқда.

Norin-Sirdaryo suv omborlari kaskada

Norin-Sirdaryo suv omborlari kaskadi ishslash tartibining o'zgarishi bois Sirdaryo xavzasida jidsiy anglashmovchiliklar yuzaga keldi. Bu esa uning yagona suv majmui sifatidabirma-

romda ishslashini xamda daryolarning shakllangan suv xujaligi muvozanatini izdan chikardi.

Kirgiziston Respublikasi ob'ekti xisoblangan Tuxtagul suv ombori, shuningdek, Tojikiston, Uzbekiston va Қозғистонning Sirdaryoning o'rta xamda қуи оқимida joylashgan suv xujaligi obektlarining ishslash tartibi muvofiqlashtirilmayapti. 4.1-jadvalda kelti-rilgan ma'lumotlar to'lik sigimi 19,5 km³ga ega Tuxtagul suv ombori bugungi kunda xam ich-ki extiyoj, xam eksport uchun arzon elektr ener-giyasini ishlab chikarishga muljallangan tar-tibda ishlayotganini va natijada xar yili қish mavsumida suv omboridan ortiqcha suv oqizilayotgani kuzatilayotganini tasdiqlaydi.

